

Anvarova Zebo

Janubiy Amerika materigi



Buxoro 2016 yil

Mazkur o'quv uslubiy qo'llanma oliy o'quv yurtlarining geografiya ta'lim yo'nalishi mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar, maktab geografiya o'qituvchilari, akademik listey , kasb hunar kollej o'qituvchilari va talabalari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

A.Ne'matov - "Tuproqshunoslik va geografiya"
kafedrasining katta o'qituvchisi.

Mazkur o'quv uslubiy qo'llanma Buxoro Davlat universiteti ilmiy Kengashining
2015 yil _____ oyining _____ sonli qarori asosida nashr etishga tavsiya
etilgan.

So'z boshi

Respublika ta'lim tizimida bugungi kunda bosh maqsad qilib komil insonni tarbiyalash qo'yilgan. Mana shu ezgu maqsadni amalga oshirish barcha umumta'lim fan o'qituvchilari oldiga bir qator vazifalarni yuklatadi. Jumladan, har bir ma'lumot o'quvchiga yetib borishi uchun u albatta sodda, tushunarli eng asosiysi qiziqarli bo'lishi shart. Shunday ma'lumotlar borki, ularni qidirib topish uchun o'nlab manbalarni o'qib chiqish, mustaqil mulohaza yuritish talab etiladi.

Geografiya umumta'lim fanlari ichida o'z jozibasi, qiziqarlighi, ommabopligi bilan alohida ajralib turadi. Inson yo'qki, o'z hayoti davomida geografiya sohasiga qiziqmagan bo'lmasin. Inson hayoti uchun eng zaruriy hayotiy unsurlar havo, suv, tuproq, tirik mavjudot haqida ko'p qonuniyatlar geografiya ta'limining mazmunini tashkil etadi. Keyingi yillarda geografiya fanining ta'sir ko'lami oshib borayotganligi, mavqeining mustahkamlanayotganligi hech kimga sir emas. Ammo, o'zbek tilida geografiyadan nashr etilayotgan ilmiy – ommabop o'quv qo'llanmalarining kam nashr etilayotganligi, o'quvchilarning geografiya faniga qiziqish hamda ehtiyojlarining oshib borayotganligini hisobga olib Jahon geografiyasi kursi bakalavr darajasida ta'lim olayotgan geografiya mutaxassislikdagi talabalar uchun bu kursning mazmunida materiklar tabiiy geografiyasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Materiklar tabiati haqidagi bilimlarni talabalar chuqurroq tasavvur eta olishlari uchun ularni alohida - alohida o'rganish muhim ahamiyatga ega. Biz ko'p yillik tajribamizga asoslanib Janubiy Amerika materigi haqidagi juda ko'plab qo'shimcha ma'lumotlarni tahlil qilib, mazkur ilmiy - uslubiy qo'llanmani yaratishga qaror qildik.

Geografiya fani tabiiy fanlar jumlasiga kiradi. Har bir geografik obyekt albatta aniq o'lchamga ega. Ma'lum obyekt haqidagi ayrim ma'lumotlarni topish uchun juda ko'p adabiyotlarni izlash ko'p vaqtni talab etadi. Geografik ma'lumotnoma tuzish g'oyasi ancha oldin paydo bo'lgan bo'lsa-da, bu sohadagi mavjud adabiyotlar mazmunan ancha sayoz edi. Materik va okeanlar geografiyasiga doir ma'lumotlarni yig'ish va ularni tartibga solish, ularni talaba kuchiga mos tarzda tanlash ishlari o'tkazildi. Mazkur o'quv uslubiy qo'llanma geografiya faniga qiziquvchi ko'p sonli kitobxonlar e'tiboriga havola etiladi. Bu ishni davom ettirish niyatida keyingi nashrlarda boshqa materiklar haqida yangi fakt va raqamlar bilan boyitish maqsadini o'z oldimizga qo'yganmiz.

O'ylaymizki, ushbu qo'llanmada keltiriladigan fakt va raqamlar maktab o'quvchisini, oliy o'quv yurti talabalarini, maktab o'qituvchilarini befarq qoldirmaydi. Keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan ushbu risola qiziqarli fanning qiziqarli jabhalarini chuqurroq bilishingiz uchun sizga ko'makdosh bo'ladi deb umid qilamiz.

Mualliflar

IBOB. Janubiy Amerika materigining geografik o'rni, tarixi va tabiati.

I.1. Janubiy Amerika materigining geografik o'rni, maydoni va chegaralari

Janubiy Amerikaning katta qismi janubiy yarim sharda ekvatorial va subekvatorial mintaqalarda joylashgan. Materikning kambar qismigina subtropik va o'rtacha kengliklarga kirib borgan.

Janubiy Amerika 5° j. k. da eng keng (15000 km dan ortadi). Materikning eng g'arbiy nuqtasi Parinyas burni ($81^{\circ}20'$ g'. u.), eng sharqiy nuqtasi esa kabubranku burnidir ($34^{\circ}46'$ g'. u.).

Materikning kengligi 40° sh. k. dan janubda 600 km dan oshmaydi. Janubiy Amerika shimolda $12^{\circ}25'$ sh. k. gacha (Galinas burni) janubda esa $53^{\circ}54'$ j. k. gacha (Magellan bo'g'ozidagi Frouord burni) davom etadi. Olovli Yer arxipelagining chekka janubi Olovli Yer orolidagi Gorn burni bo'lib, u $55^{\circ} 99'$ j. k. dadir.

Shimoliy Amerika bilan bo'lgan geografik chegarasi Karib dengizidagi Daren qo'ltig'idan Tinch okeandagi Buenaventura qo'ltig'igacha davom etadi. Panama bo'yni shartli ravishda har ikki materik o'rtasidagi chegara deb qabul qilingan

Janubiy Amerika materigi atrofida orollar kam. Sohilga eng yaqin joylashgan yirik materik orollari Trinidad, Chili, Olovli Yer, Folklend orollaridir. Okeanik orollardan Janubiy Amerikaga Galapagos va Xuan-Fernandes orollari kiradi. Janubiy Amerikaning maydoni unga qarashli orollar bilan birga 17 850 ming km^2 . Shundan atigi 150 ming km^2 qismi orollarga to'g'ri keladi.

Atlantika okeanida ekvator yaqinida Janubiy Amerika qirg'oqlariga Janubiy Passat oqimi yaqinlashib keladi. Bu oqim San-Roka yaqinida ikki qismga bo'linadi, ulardan biri Gvineya oqimi nomi bilan materik qirg'oqlari bo'ylab shimoli-g'arbga Antil orollariga yo'naladi, ikkinchisi esa Braziliya oqimi nomi bilan janubi-g'arbga, La-Plata daryosining quyar joyiga tomon ketadi.

Materikning janubi-sharqiy sohillaridan sovuq Folkend oqimi o'tadi. Braziliya va Folklend oqimlari La-Plata rayonida 40° j. k. bilan 35° j. k. orasida o'zaro uchrashadi. Atlantika okeani sohilida quruqlikka chuqur kirib boruvchi yirik qo'ltiqlar deyarli yo'q. Faqat janubi-sharqda Patagoniya qirg'oqlariga yarim oy shaklidagi San-Matias, San-Xorxe va boshqa buxtalar o'yib kirgan. Parana daryosining quyar joyida qirg'oq La-Plataning keng va uzun estuariysi tufayli o'yilib ketgan. Undan shimolroqda Janubiy Amerika sohilida chuqur va kemalar turishi uchun qulay buxtalar (qo'ltiqchalar) joylashgan. Eng katta daryolarning birinchi navbatda, Amazonkaning quyar joyida juda keng buxtalar bor.

Karib dengizi sohilida hamma yarim orollar qulay qo'ltiqlarni bir-biridan ajratib turadi. Shimolda Pariya qo'ltig'i va Pariya yarim oroli, eng katta Venesuela qo'ltig'i ajralib turadi; Venesuela qo'ltig'i shimoli-g'arb va sharqda Guaxira hamda Paraguana yarim orollari bilan chegaralanadi. Panama bo'ynining boshlanishida dengizga keng ochiq Daren qo'ltig'i bor. Kontinental platforma Tinch okeanida, Janubiy Amerika qirg'oqlari yaqinida juda kambar, ayrim joylarda umuman yo'q. Materik yaqinida eng chuqur joylari 7000 m dan ortadigan chuqur okean cho'kmalari bor. Iliq oqimlar ta'siri ekvatoridan shimoldagina bilinadi, Janubiy Amerika Tinch okean sohillarining boshqa butun qismida esa

juda katta sovuq Peru oqimining ta'siri seziladi; Peru oqimi suvlari janubdan to ekvatorgacha boradi.

Materikning shimoli-g'arbiy sohili taxminan 5° j. k. gacha juda o'yilgan. Eng katta va qulay buxta Guayaxil buxtasidir. Janubroqda to 30° j. k. gacha qirg'oq deyarli o'yilmagan, baland va kema kirib kelishi uchun noqulay. Biroq, Tinch okean sohillarining eng janubiy qismi bo'linib-bo'linib ketgan, sohil bo'ylab joylashgan ko'plab mayda va yirik orollar Chili hamda Olovli Yer arxipelaglarini hosil qiladi. Materik sohiliga o'yib kirgan qo'ltiqlar va ayrim orollarist bir-biridan ajratib turuvchi bo'g'ozlar egri-bugri va tordir. Bularga kattagina Korkovado va Penyas qo'ltiqlari, shuningdek, Olovli Yer arxipelagini materikdan ajratib turuvchi Magellan bo'g'ozi misol bo'la oladi.

1.2. Kashf etilishi va tadqiq qilinish tarixi

Shimoliy va Janubiy Amerikani atrofdagi orollari bilan birga odatda Amerika deb ataladigan bir qit'aga birlashtiradilar. Biroq bu ikki materik tabiiy sharoitiga ko'ra bir-biridan butunlay farq qilib, bu hol ularning geografik o'rni va rivojlanish tarixi bilan bog'liq.

G'arbiy yarim shardagi bu materiklar tabiatidagi katta tafovut ularning har birini alohida ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Amerikaning Yevropaliklar tomonidan kashf etilishi, bosib olinishi hamda o'zlashtirilishi murakkab jarayon bo'lib, ancha uzoq davom etgan.

Amerika qit'asiga kiruvchi Grenlandiya oroli va Shimoliy Amerika materigining shimoliy rayonlari yevropaliklarga (normanlarga) eramizning I minginchi yillari oxiridayoq ma'lum bo'lgan. Normanlar XIV asrga kelib, materikning ichkarisiga ham kirib borganlar deb taxmin qiladilar. Keyinroq XV asr oxiridagi X. Kolumb sayohatlariga qadar bu kashfiyotlar unutilib ketgan. XV asr oxirida Markaziy Amerikadagi deyarli barcha orollar va Markaziy Amerika bo'ynining ancha qismi, so'ngra esa janubiy materikning shimoliy sohillari kashf qilindi. Shu vaqtdan e'tiboran Amerikani ispanlar, inglizlar va fransuzlar tomonidan kashf qilinishi, o'rganilishi va bosib olinishi boshlandi. 1507 - yili kartograf M. Valdzemyuller bu yangi yerlarni birinchi bo'lib qit'a deb taxmin qilgan florensiyalik sayyoh Amerigo Vespuchchi nomi bilan atadi. Shimoliy Amerika bilan Janubiy Amerikaning alohida materiklar ekanligi haqidagi tasavvur ancha keyin paydo bo'ldi.

XVIII asr o'rtalaridan boshlab rus olimlari va dengizchi sayyohlari Aleut orollarida, Alyaskada va Tinch okean bo'ylarida katta tadqiqotlar olib bordilar. Bu tadqiqotlarni V. Bering va A. I. Chirikov ekspeditsiyalari boshlab berdi, keyinchalik ularni A. A. Baranov, M. S. Gvozdev va boshqalar davom ettirdilar.

Bir oz keyinroq (XIX asr oxiri-XX asr boshida) ayrim rus olimlari Janubiy Amerikaning turli rayonlarida tadqiqotlar o'tkazdilar. N. M. Albovning Argentina va Olovli Yer orollariga, A. S. Ioninning materikning sharqiy qismiga oid ishlari katta ahamiyatga egadir.

1.3. Materik tabiati shakllanishi va relyefi.

Janubiy Amerikaning katta qismini tashkil etuvchi Janubiy Amerika platformasi, Gondvananing boshqa qismlari bilan proterozoyning oxiri va kembriyning boshida qo'shilgan. Butun keyingi tarixiy geologik davrlar mobaynida unda asosan ko'tarilma harakatlar bo'lib, asosiy qismi quruqlik bo'lib qolavergan. Proterozoy oxiridan boshlab platformaning asosiy struktura

elementlari shakllangan: Parana etaklaridan shimolroqda Gvianabraziliya megaqalqoni ajralib chiqqan; uning katta qismida tokembriy fundamenti yer betiga chiqib yotadi.

Janubiy qismida Pamba - Patagoniya plitasi paydo bo'lib, u butunlay cho'kindi jinslar qoplami tagida qolgan. Megaqalqon territoriyasida Gviana, Sharqiy Braziliya va G'arbiy Braziliya anteklizalari ajralib chiqib, paleozoyning boshidan boshlab ular orasida vaqt-vaqti bilan dengiz suvi bosgan sineklizalar shakllangan.

Bu vaqtda Baykal strukturalarida And geosinklinal zonasi paydo bo'lib, platformaning g'arbiy chegarasini aniq shakllantirgan.

Paleozoy erasining birinchi yarmi davomida geosinklinalda orogenik prostesslar ro'y bergan, platformadagi sineklizalarga esa dengizlar bosib kelgan, paleozoyning ikkinchi yarmida, And geosinklinalida tektonik harakatlar eng kuchayib, quruqlik ko'tarilgan va platformaning deyarli barcha qismi suv ostidan chiqqan. Ko'tarilish natijasida iqlim sovib, muzlanish ro'y bergan; bu muzlanish Afrikadagi kabi platformaning markaziy qismidagi juda katta maydonlarni egallagan.

Perm davri oxirida tog' paydo bo'lish harakatlari butun And geosinklinaliga yoyilgan, platforma esa ko'tarilma harakatlar markaziga aylangan. Buning natijasida qalqonlardagina emas, balki qatlam-qatlam ko'l allyuvial jinslari to'plangan sineklizalarda ham kontinental sharoit qaror topishi platformada bunday sharoit mezozoyning butun birinchi yarmi davomida saqlanib turdi. Mezozoyning birinchi yarmidagi tekislangan yuzalar platformaning hozirgi relyefida katta rol o'ynaydi.

Yura davrida And geosinklinali bilan Patagoniyada vulkanik harakatlar ro'y bergan. Yura davri bilan bo'r davri orasida vulkanik harakatlar, shuningdek botiqlarning chekka qismlarini, jumladan, Parana botig'ini egallagan. Yer yoriqlari bo'ylab bazaltlar oqib chiqib, 2 mln km² ga yaqin maydonni o'rtacha 600 m qalinlikda qoplab olgan.

Mezozoyning ikkinchi yarmida Atlantika okeani oblastida cho'kish ro'y berib, u Janubiy Amerikaning Afrikadan ajralib chiqishiga sabab bo'lgan. Bunda Atlantika tomonidan platformaga dengiz suvlari bostirib kirgan, ayrim joylar esa, aksincha, kompensasion ko'tarilgan. Ayni vaqtda Amazonka va Parana sineklizalarida vulkanik harakatlar yana boshlangan. Platformaning quruqlik qismlarida yangidan-yangi tekislangan yuzalar hosil bo'lgan va ular ham relyefda hozirgacha saqlanib qolgan.

And geosinklinalida mezozoy oxirida pasaytma harakatlar eng ko'p bo'lib, ular platformaning chekka qismini ham egallagan.

Bo'r davri oxiriga kelib Janubiy Amerikada hozirgiga o'xshash iqlim sharoiti qaror topgan. Organik dunyo tarkibida mezozoy erasining asta-sekin tugab borayotgan fauna va florasini o'rniga hozirgiga o'xshash turlar paydo bo'la boshlagan. Bunday hayvonlar tarkibida baliqlar, qushlar, shuningdek, sut emizuvchilardan qopchiqlilar va hasharotlar bor edi. O'simliklardan yopiq urug'lilar jadal rivojlangan. Janubiy Amerika va Afrika ajralgunga qadar ularning tur paydo bo'lish umumiy markazi hozirgi Janubiy Atlantika o'rnida edi. Kaynazoy boshidan har bir materik florasini mustaqil shakllandi.

Bo'r davri oxiri va paleogen davomida And zonasida burmalanish, ko'tarilish

hamda vulkanik harakatlar bo'ldi. Paleogen davri oxiriga kelib, geosinklinal o'rnida yuksak tog'lar qad ko'tardi va bu tog'lar janubda Antarktida materigida davom etib, shimolda esa Antil-karib tog'lari oblastiga borib tutashgan. Ko'tarilish bilan bir vaqtda platformaning kattagina qismi dengiz sathidan pastga cho'kib, kratonlar atrofidagi botiqlar, sineklizalar va Atlantika okeani sohilida qalin cho'kindi jins qatlamlari hosil bo'lgan.

Neogen davrida qisman ro'y bergan cho'kishdan so'ng qalqonlar oblasti va And zonasida shiddatli ko'tarilma harakatlar bo'ldi. Buning natijasida daryolar o'z o'zanini o'yib, sharsharalar hosil qildi. Faqat Atlantika okeani va Karib dengizi sohillarigina cho'kib, bu yerlarda estuariy hamda lagunalar vujudga keldi.

And sistemasining umumiy ko'tarilishi platformaning yondosh qismlarini o'z ta'siri ostiga oldi. Buning natijasida Kordilyera yoni tizmalari, Pampas Serralari va orografik jihatdan And tog'lari bilan bog'liq bo'lgan boshqa tizmalar ham ko'tarildi. Tog' paydo bo'lish harakatlari aktiv vulkanik harakatlar bilan birgalikda ro'y berdi va ular tog' sistemasining turli qismlarida hamda Patagoniya plitasi doirasida turli vaqtda bo'lib o'tdi.

Ko'tarilma va vulkanik harakatlar butun pliostenda, antropogen boshida davom etib, hozirgi vaqtgacha ham tugagani yo'q. And tog'lari ko'tarilishi bilan bir vaqtda intensiv yemirilgan, uvoq to'plangan hamda tekislangan yuzalar paydo bo'lgan.

And tog'larining g'arbiy zonasida ko'tarilish bilan bir vaqtda chuqur yer yoriqlari paydo bo'lib, bu zonaning chekka qismlari Tinch okean tagiga cho'kkan.

Pliostenda birmuncha vaqtdan keyin Janubiy Amerika shimoliy materik bilan uzil-kesil tutashgan. Bu hol har ikkala materikdagi hayvon va o'simlik turlarining o'zaro almashinuviga imkon bergan.

Janubda Antarktika oblastida iqlimning sovib ketishi va Antarktidada qoplama muzliklarning paydo bo'lishi munosabati bilan bu yerga Antarktika florasi kirib kela boshladi. And tog'lari ko'tarilgan sari, ularning o'ziga xos organik dunyosi vujudga keldi; u uch flora elementidan: tog' tabiati sharoitiga moslashgan neotropik elementdan, Antarktika elementidan va And tog'larining o'zida tarkib topgan toqqa xos endemik turlardan iborat.

And tog'larining kuchli ko'tarilishi oqibatlaridan biri tog' muzlanishlaridir; ular hozirgiga qaraganda ancha katta bo'lgan, biroq chekka janubni hisobga olmaganda, hech qaerda tog'lar doirasidan chetga chiqmagan. Materikning janubi-g'arbida cho'kish va muzliklar ishi natijasida Chilining fordli sohili vujudga kelgan.

Atropogen davrining ikkinchi yarmida Janubiy Amerikada odam yashagan. Bu yerga odam chetdan kelib tarqalgan bo'lishi mumkin, chunki Neotropik oblastdan topilgan qazilma va hozirgi flora tarkibida qirra burun (odamsimon) maymunlar uchramaydi. Janubiy Amerikaga odam Shimoliy Amerikaning Tinch okean sohillari orqali 30-15 ming yil burun kirib kelgan bo'lishi ehtimolga eng yaqin.

Janubiy Amerika orografiyasi bilan Shimoliy Amerika orografiyasi o'rtasida bir qadar o'xshashlik bor. Sharqda Atlantika okeani qirg'oqlari yaqinida Braziliya va Gviana tog'liklari hamda Patagoniya platosi bor. Materikning chekka g'arbi va shimoli-g'arbida uning qirg'oqlari qiyofasiga mos ravishda dunyodagi eng uzun tog' sistemi And tog'lari yoki Janubiy Amerika Kordilyerasi tog'lari 6 ming km ga cho'zilgan. Tog'liklar bilan And tog'lari orasidagi materikning taxminan 45%

ini egallagan, juda katta Amazonka, Orinoko va Paragvay Parana (La-Plata) pasttekisliklari bor. Ulardan Janubiy Amerikaning eng katta daryolari oqib o'tadi. Bu tekisliklar materikning o'rta qismida yaxlit tekisliklar chizig'ini hosil qilib bir-biriga tutashib ketgan.

Shimoliy Amerika bilan Janubiy Amerikaning orografik jihatdan bir-biriga o'xshashligi har ikkala materik rivojlanishi va strukturasining g'arbiy chekka qismlari Tinch okean mintaqasining burmali tog'lariga kiradi, vaholanki, ularning katta sharqiy qismlari platforma tuzilishiga ega, biroq Janubiy Amerikaning platforma qismi tuzilishi va rivojlanishiga ko'ra Shimoliy Amerikadan ko'ra Afrikaga ko'proq o'xshash.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Janubiy Amerika platformasi juda katta Gviana-Braziliya megaqalqoni (uni Janubiy Afrika qalqonining analogi deb qarash mumkin) bilan Pampa-Patagoniya plitasidan (uni Afrikadagi Sahroi Kabir plitasiga taqqoslash mumkin) tashkil topgan.

Megaqalqon doirasida fundamentning u yer betiga chiqqan uchta qismi bor; bular Gviana, G'arbiy Braziliya va Sharqiy Braziliya qalqonlaridir. Ularni Amazonka, Parana, San-Franstisko, Maranyao (Paranaiba) sineklizalari bir-biridan ajratib turadi. Oxirgi uch sinekliza o'zaro tutashib G'arbiy Braziliya qalqoni bilan sharqiy Braziliya qalqoni orasidagi bir butun botiqlar zonasini hosil qilgan.

G'arbiy Kordilyera tog'lari baland va o'rtacha balandlikdagi burmali-palaxsali tizmalardan iborat bo'lib, ular alp stiklining o'rtasi yoki oxirida daydo bo'lgan. G'arb tomondan bu zonaning yonida bo'ylama vodiy va botiqlar polosasi joylashgan bo'lib, ular o'z navbatida uzilib-uzilib davom etuvchi Qirg'oqbo'yi Kordilyerasi tog'larini. Tinch okeandan ajratib turadi; Qirg'oqbo'yi Kordilyerasi tog'lari deyarli hamma joyda kaynazoy erasining burmalangan yotqiziqlaridan tarkib topgan. Keyingi zona-Sharqiy Kordilyera tog'lari paleozoy burmali strukturalarining kaynazoy erasi oxiridagi palaxsali harakatlari natijasida paydo bo'lgan. And tog'larining markaziy qismida, G'arbiy va Sharqiy Kordilyera tog'lari o'rtasidagi Boliviya tog'ligi Punalari joylashgan, ular paleozoy palaxsalaridan iborat bo'lib, alp orogenezida ancha o'zgarib ketgan.

26° j. k. bilan 37° j. k. o'rtasida Kordilyera yoni (ya'ni, Baland Kordilyera) bilan Pampa Serralarning o'rtacha balandlikdagi va baland palaxsali massivlari hamda tizmalari qad ko'targan. Bu tog'lar, avvaliga paleozoy, so'ngra esa kaynazoy tog' paydo bo'lish harakatlari ta'siridagi platformaning chekka qismlaridir. Ular asl And tog'laridan tektonik botiqlar orqali ajralgan bo'lib, platforma bilan And tog'lari orasidagi oraliq oblast deb qaralishi mumkin. And tog'lari mintaqasida foydali qazilmalardan mis, qalay, qo'rg'oshin va ruxning pnevmatolit hamda gidrotermal rudalari tarqalgan. Shuningdek, kumush, oltin va nodir toshlar konlari ham bor. And tog'larining tog' oralig'i va tog' oldi bukilmalari, ayniqsa Venesuela hamda Kolumbiya territoriyasida, neftga boydir.

Iqlimi. Janubiy Amerika ekvatorning har ikkala tomonida joylashgan, biroq uning asosiy qismi janubiy yarim shardadir. Materikning eng keng qismi tropiklar orasida joylashgan bo'lib, subtropik va o'rtacha kengliklarda eng kambar hamda qirg'oqlari o'yilib ketgan qismi joylashgan Janubiy Amerikaning geografik jihatdan 12° sh k. bilan 56° j. k. da joylashganligi bu hududga yuqori

darajada quyosh radiatsiyasining tushishi uchun qulaydir. Materikning katta qismida yillik yalpi radiatsiya miqdori $120-160 \text{ kkal sm}^2$ ga teng, chekka janubidagina bu miqdor 80 kkal sm gacha kamayadi. Yer yuzasining radiatsiya balansi miqdori qishda 45° j. k. dan janubda, ya'ni materikning juda kichik qismidagina manfiydir. Janubiy Amerikada, Shimoliy Amerikadagi kabi, iqlim hosil qiluvchi muhim omil uning orografiyasidir. Atlantika okeanidan keluvchi havo oqimlari g'arbga to And tog'larining etaklarigacha erkin kirib kela oladi.

G'arbda va qisman shimolda And tog'lari to'sig'i Tinch okean bilan Karib dengizidan kirib keladigan havo oqimlari harakatiga to'sqinlik qiladi. Atlantika va Tinch okeanlarining materik qirg'og'i yaqinidagi oqimlari ta'siri ham kattadir. Janubiy Passat oqimining Gviana va Braziliya tarmoqlari Atlantika okeanida Janubiy Amerika qirg'oqlari yaqinida $+3^\circ\text{S}$ atrofida qishki musbat anomaliya hosil qiladi. Tinch okeandagi deyarli ekvatorgacha yetib boruvchi Peru salqin oqimi esa Antarktikadan shimolga sovuq suvlarni surib kelib, ekvatorial zonada shu kenglikdagiga qaraganda temperaturani 4°C ga pasaytiradi. Janubiy Amerikaning katta qismida atmosfera stirkulyatsiyasining eng muhim tipi har ikkala yarim shardagi passat stirkulyatsiyasidir.

Atlantika bosim maksimumining g'arbiy chekkasi bo'ylab nisbatan sernam tropik havo massalari o'tadi, ular materik ichkarisiga kirib borar ekan, transformatsiyalanadi va o'zidagi namning bir qismini Braziliya hamda Gviana tog'liklarining chekkasidagi tog'larda qoldiradi.

Ekvatoridan janubda, materik sharqiy chekkasida shimoliy yarim shar passatlari bilan janubiy yarim shar passatlari uchrashadi, birmuncha g'arbiy rayonlarda esa har bir yarim shar yozida passatlar bir yarim shardan ikkinchisiga o'tadi va musson shamollari hosil bo'ladi.

Materik g'arbiy chekkasining katta qismi Janubiy Tinch okean maksimumi va u bilan bog'liq bo'lgan janubiy hamda janubi - g'arbiy shamollar hamda passat inversiyasining ta'siridadir. Materikning chekka janubiga o'rtacha kengliklarning g'arbiy havo oqimlari ta'sir ko'rsatadi.

Yanvar oyida Janubiy Amerikaning ekvatoridan janubda joylashgan va past bosim oblasti qaror topadigan qismi eng yaxshi isiydi. Shimoliy Atlantika maksimumi birmuncha janubga surilgan bo'lib, uning janubiy chekkasidan o'tuvchi havo oqimi shimoli - sharqiy passat tarzida Janubiy Amerikaning shimoliy qismini egallaydi. Bu havo Gviana tog'ligining sharqiy yonbag'irlari va Gviana pasttekisligida ancha yog'in beradi, tog'likning ichki rayonlari va Orinoko pasttekisligida esa u quruq shamoldan iborat bo'lib, qurg'oqchiliklarning bo'lishi shu havo oqimi bilan bog'liqdir.

Shimoli-sharqiy passat ekvatorni kesib o'tar ekan, shimoliy va shimoli-g'arbiy yo'nalish oladi hamda Braziliya tog'ligi bilan Gran-Chako tekisligining katta qismiga yomg'ir keltiradi.

Materikning isigan qismiga Janubiy Atlantika antisikloni tomonidan musson xarakteridagi shamollar kirib kelib, Braziliya tog'ligi bilan La-Plata pasttekisligiga yomg'ir yog'adi.

G'arbiy sohilning 30° sh. k. dan to deyarli ekvatorgacha bo'lgan katta qismi Tinch oken maksimumining sharqiy qanoti ta'sirida bo'lib, bu yerlarga deyarli yog'in yog'maydi. Sohilning Guayakil qo'ltig'idan shimoldagi qismigina ekvatorial havo massalari ta'siri ostida bo'lib, unga ko'p miqdorda yomg'ir

yog`adi.

Materikning chekka janubiga g`arbdan nam okean havosi kirib keladi. Bunda Tinch okean sohillari va ayniqsa, And tog`larining g`arbiy yonbag`irlariga yog`in ko`p tushadi. And tog`lari bilan to`silib qolgan va sharqdan sovuq oqimlar o`tadigan Patagoniya o`rtacha kengliklarning nisbatan quruq kontinental havo massalari shakllanadigan markazga aylanadi.

Materikning butun shimoliy qismi iyulda janubi-g`arbiy musson keltiradigan nam ekvatorial havo ta`sirida bo`ladi; shuningdek, Atlantika okeani tomonidan kirib keladigan nam tropik dengiz havosi ham ta`sir etib turadi.

Janubiy yarim shardagi tropik maksimumining shimolga surilishi munosabati bilan Braziliya tog`ligida yuqori bosimli va quruq ob-havo qaror topadi. Tog`likning janubi-sharqiy chekkasigina bevosita Atlantika okeanidan keladigan janubi-sharqiy passatlar ta`sirida bo`lgani uchun unga ancha miqdorda yog`in tushadi; biroq bu yog`in miqdori yozda kamroqdir.

Janubiy yarim sharning subtropik va o`rta kengliklarida g`arbiy havo massalari ustun turib, siklonlar yomg`ir keltiradi. Patagoniya yozda ham nisbatan quruq va sovuq havo shakllanadigan markaz bo`lib qolaveradi; bu havo vaqt-vaqti bilan shimolga kirib borib, Amazonka pasttekisligigacha yetadi va bu yerda haroratning ancha pasayib ketishiga sabab bo`ladi.

Tinch okean sohilining markaziy qismida iyulda ham yanvardagi kabi, 30° j. k. dan to ekvatorgacha janubiy va janubi-g`arbiy shamollar ustun turadi; ular sovuq Peru oqimi suvlari ustida qirg`oqqa parallel esib, shu kengliklarda Tinch okean sohili ob-havosining ancha quruq kelishiga sabab bo`ladi. Sohilning passat shamollari janubi-g`arbiy mussonlar bilan almashinadigan shimoliy qismidagina yog`inlar ancha ko`p tushadi.

Afrika kabi Janubiy Amerikaning asosiy qismi ekvatorial, subekvatorial va tropik iqlim mintaqalarida joylashgan. U chekka janubda subtropik va mo`tadil iqlim mintaqalariga ham kirib boradi. Biroq bu mintaqalarning kengligi va ular ichidagi turli iqlim tiplarining nisbati Afrikadagidan boshqachadir. Bu, avvalo, Janubiy Amerika orografiyasining o`ziga xos xususiyatlari bilan bog`liqdir; Janubiy Amerika bu jihatdan Afrikadan keskin farq qiladi.

Janubiy Amerikada ekvatorial iqlim mintaqasi butun Amazonka pasttekisligini (uning sharqiy va chekka janubiy qismlari bundan mustasno), Gviana tog`ligi bilan Orinoko pasttekisligining unga tutash qismlarini o`z ichiga oladi.

Tinch okean sohilining ekvatoridan shimoldagi qismi ham ekvatorial mintaqaga kiradi. Bu mintaqaga yil bo`yi yog`inlarning ko`pligi va haroratining birday yuqori ( + 24, +28°S) ekanligi bilan xarakterlanadi. Yillik yog`in miqdori turli qismida 1500 mm dan 2500 mm gacha bo`lib, Tinch okean sohillaridagina yog`in miqdori yiliga 5000-7000 mm ga yetadi. Bu rayonga yog`inlarni yil bo`yi janubiy va janubi-g`arbiy shamollar keltiradi, yog`inlarning ko`pligi orografik sabablarga bog`liqdir. Amazonka pasttekisligida yog`inlarning asosiy qismi ekvatorial havo massalaridagi konvektiv jarayonlar natijasida hosil bo`ladi.

Yog`inlar miqdori mumkin bo`lgan bug`lanishdan ancha ko`p bo`lganligi sababli namlanish koeffitsienti yil bo`yi yuqori (hamma joyda 100% dan).

Janubiy Amerikaning Orinoko pasttekisligi, Karib dengizi sohillari Gviana

tog'ligining katta qismi va Gviana pasttekisligini o'z ichiga olgan butun shimoliy qismi subekvatorial iqlim mintaqasida joylashgan. Janubiy yarim sharning subekvatorial mintaqasiga Braziliya tog'ligining shimoli va Amazonka pasttekisligining janubiy qismi kiradi. Shimoliy va janubiy yarimsharning subekvatorial mintaqalari sharqda o'zaro tutashadi. Tinch okean sohilining ekvatoridan to 4-5° j. k. gacha bo'lgan qismi ham subekvatorial mintaqaga kiradi. Subekvatorial iqlimning o'ziga xos xususiyati, ya'ni yog'inlarning mavsumiy taqsimlanishi bu hududning barcha qismida yaqqol aks etgan. Janubiy yarim sharda Braziliya tog'ligi, Amazonka pasttekisligining janubi va Amazonka daryosining quyi oqimida ekvatorial mussonlar bilan bog'liq yog'ingarlik davri taxminan dekabr oyidan may oyigacha davom etadi; bunda yog'in miqdori ekvatorga tomon orta boradi. Shimolda yomg'irgarlik davri may oyidan dekabr oyigacha davom etadi. Qishda passatlar kirib kelganda yog'in yog'maydi Braziliya tog'ligi sohilining iliq okeandan passatlar kirib kelib, tog'larga uriladigan shimoliy qismidagina qishda ham yomg'ir yog'ib turadi.

Afrikadagi kabi, bu yerda ham eng yuqori harorat quruq faslning oxiri bilan namgarchil faslning boshlanishi o'rtasida kuzatiladi; bunda oylik o'rtacha harorat +28°, +30° C gacha ko'tariladi. Lekin hech qaysi oy temperaturasi +20° C dan past bo'lmaydi.

Janubiy Amerika janubiy yarim shardagina tropik iqlim mintaqasiga kirib boradi. Braziliya tog'ligining sharqiy va janubi-sharqiy qismlari sernam passat iqlimli oblastda joylashgan bo'lib, bu yerda Atlantika okeanidan esuvchi tropik havo oqimlari yil bo'yi yog'in keltiradi. Nam havo tog'lar yon bag'ridan yuqoriga ko'tarilar ekan, shamolga ro'para qismida ko'plab yog'in beradi. Bu iqlim yog'inlar rejimi va namlik miqdoriga ko'ra Amazonka pasttekisligi iqlimiga o'xshash, biroq eng issiq oy bilan eng sovuq oy harorati farqining ancha kattaligi bilan xarakterlanadi.

Tropik mintaqaning materik ichkarisidagi qismida (Gran-Chako tekisligi) iqlim qurg'oqchil bo'lib, yog'inlar maksimumi yozga to'g'ri keladi va qishki quruq fasl yaqqol aks etgan. U yog'inlar rejimiga ko'ra subekvatorial mintaqaga o'xshash, biroq undan, ayniqsa qishda, temperaturaning keskin o'zgarishi, yillik yog'inlar miqdorining kamligi va nam yetarli emasligi bilan farq qiladi. Tinch okean sohilining 5° j. k. bilan 30° j. k. orasidagi qismi qirg'oq cho'llari va chala cho'llar iqlimi oblastidadir. Bu iqlim Atakama cho'lida eng yaqqol aks etgan. Atakama cho'li Tinch okeani maksimumining sharqiy chekkasi va harorat inversiyasi ta'siridadir, harorat inversiyasi yuqori kengliklardan har doim nisbatan sovuq havoning va kuchli Peru oqimidan sovuq suvlarning oqib kelib turishi natijasida hosil bo'ladi. Havo namligi 80% ga yetgani holda yog'inlar juda kam, ayrim rayonlarda yiliga atigi bir necha millimetrgina yog'ingarchilik bo'ladi. Qishda sohilga tushadigan shudringning ko'pligi qisman buning o'rnini bosadi. Hatto eng issiq oy harorati mo'tadil bo'lib, kamdan-kam hollarda +20°C dan ortadi va mavsumiy amplitudalar uncha katta emas.

Janubiy Amerika 30° j. k. dan janubda subtropik iqlim mintaqasiga kiradi. Materikning janubi-sharqiy qismi (Braziliya tog'ligining janubiy chekkasi, Urugvayning quyi oqimi havzasi, Parana va Urugvay suvayirg'ichi, Pampaning sharqiy qismi) iqlimi bir xildagi nam subtropik iqlimdir. Yozda yog'inlarni musson xarakteridagi shimoli-sharqiy shamollar keltiradi, qishda esa yog'inlar qutb fronti

bo'ylab o'tadigai siklonlar faoliyati bilan bog'liqdir. Bu rayonlarda yoz juda issiq, qish yumshoq: qishki o'rtacha haroratlar $+10^{\circ}\text{C}$ atrofida bo'ladi, biroq janubdan nisbatan sovuq havo massalari kirib kelganda temperatura 0°C dan ancha pasayib ketadi.

Subtropik mintaqaning materik ichkarisidagi rayonlari (G'arbiy Pampa) quruq subtropik iqlimi bilan xarakterlanadi. Atlantika okeanidan bu yerga nam havo kam yetib keladi va yozgi yog'inlar (yiliga 500 mm dan oshmaydi) asosan konvektiv yo'l bilan hosil bo'ladi.

Harorat yil davomida keskin o'zgarib, oylik o'rtacha harorat $+10^{\circ}\text{C}$ bo'lgani holda, ko'pincha 0°C dan pastga tushadi.

Tinch okean sohillari 30° j. k. dan 37° j. k. gacha subtropik iqlimga ega bo'lib, yozi quruqdir. Tinch okean maksimumining sharqiy chekka qismi ta'sirida bu erda yoz deyarli yomg'irsiz va issiq emas (ayniqsa, sohilning o'zida). Qish yumshoq va seryomg'ir. Haroratning mavsumiy o'zgarishlari uncha katta emas.

Janubiy Amerikaning eng tor qismi 40° j. k. dan janubda mo'tadil mintaqada joylashgan. Patagoniyada o'rta kengliklar kontinental havosining shakllanish markazi bor. Bu kengliklarga yog'inlarni g'arbiy shamollar keltiradi. G'arbiy shamollarning Patagoniyaga kirib kelishiga And tog'lari to'sqinlik qiladi, shu sababli yog'inlar miqdori 250-300 mm dan oshmaydi. Qishda, janubdan sovuq havo kirib kelishi sababli, kuchli sovuq bo'lib turadi. Sovuq juda kamdan-kam holdagina -30° , -35°C ga tushadi, biroq oylik o'rtacha temperaturalar 0°C dan yuqoridir.

Materikning chekka janubi-g'arbi va qirg'oq bo'yi orollari iqlimi mo'tadil issiq, okean iqlimidir. Bu butun oblast intensiv siklonlar harakati va o'rta kengliklarning okean havosi ta'siridadir. And tog'larining g'arbiy yon bag'irlarida qishda ayniqsa ko'p yog'in yog'adi. Yozda yomg'ir kam yog'adi, biroq bulutli ob-havo ustun turadi. Yillik yog'in miqdori hamma joyda 2000 mm dan oshadi. Yozgi va qishki haroratlardagi farq uncha katta emas.

1.4. Ichki suvlari. Janubiy Amerika maydoniga ko'ra faqat Antarktida bilan Avstraliyadan katta bo'lishiga qaramay, oqimning umumiy hajmi jihatidan (7500 km^3) Yevrosiyodan boshqa barcha materiklardan oldinda turadi, oqim qavatining o'rtacha qalinligiga ko'ra esa (417 mm) Yer yuzida birinchi o'rinni egallaydi.

Janubiy Amerikadagi zich, yaxshi rivojlangan daryo tarmoqlarining shakllanishiga materikning iqlim sharoiti, rivojlanish tarixi va materik relyefi qulay imkon bergan. Janubiy Amerikaning katta qismi mezozoydan boshlab quruqlikdan iborat bo'lgan. Bu esa, materikning ancha qismida suv tarmoqlarining qadimiy ekanligini belgilagan. Janubiy Amerika relyefi balandliklar farqining kattaligi va juda keng pasttekisliklarning baland tog' tizmalari bilan yonma-yon joylashganligi bilan xarakterlanadi. Bu hol katta va murakkab daryo tizimlarining shakllanishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Janubiy Amerika daryolarining asosiy to'yinish manbai - yomg'ir suvlaridir. Muzlik suvlari And tog'larining janubidagina ahamiyatga ega. Qor suvining salmog'i juda kam.

Janubiy Amerikada qurg'oqchil hududlar kam ekanligidan, chekkasidan daryolar oqib o'tmaydigan oblastlar yer yuzasining kichik bir qisminigina egallaydi. Bular: Gran-Chakoning janubiy rayonlari, And tog'larining ichki yassi tog'liklari, Atakama botig'i va Tinch okean sohillarining markaziy qismlaridir.

Janubiy Amerika katta qismining gidrologik rejimi, Afrikadagi kabi, yomg'irlarning ko'pligi va ularning mavsumiy yog'ishiga bog'liq. Faqat ekvator yoni rayonlari va chekka janubi-g'arbdagina yog'inlarning bir tekis taqsimlanganligi sababli daryolar rejimi ham bir tekisdir. Janubiy Amerikaning eng katta daryosi Amazonka. Bu daryo havzasining katta qismi ekvatordan janubda joylashgan. Daryo havzasining maydoni 7 mln. km² dan ortiq, bosh irmog'idan hisoblangan uzunligi 6480 km. Amazonka daryosining suv sarfi dunyodagi eng katta daryolar suv sarfidan bir necha baravar katta. U o'rta hisobda 120 ming m sek ga teng. Amazonkaning yillik o'rtacha oqimi (3800 km³) butun Janubiy Amerika daryolari oqimining ko'p qismini va yer sharidagi hamma daryolar oqimining 15% ini tashkil etadi.

Amazonkaning bosh irmog'i Maranon daryosi bo'lib, nisbatan yaqinda o'rganilgan. Bu daryo And tog'larida 4840 m balanddan boshlanadi. Faqat tekislikdagi birinchi yirik irmog'i - Ukayali kelib quyilgandan keyingina daryo Amazonka nomini oladi.

Amazonkaning ko'pdan-ko'p irmoqlari And tog'lari bilan Braziliya va Gviana tog'liklari yon bag'ridan oqib tushadi. Ulardan ko'pchiligining uzunligi 1000 km dan ortadi. Amazonkaning ko'p yirik irmoqlari janubiy yarim shar daryolaridir. Uning eng katta so'l irmog'i Riu-Negru (2300 km), eng katta o'ng irmog'i va umuman Amazonkanint eig yirik irmog'i Madeyra (3230 km) dir.

Manon va Ukayali irmoqlari kelib qo'shilgach, Amazonka o'zanining kengligi 1-2 km bo'lib, u quyi qismiga tomon tez kengaya boradi. O'zanining kengligi Manaus yaqinidayoq 5 km ga, quyi qismida 20 km ga yetadi, quyilish joyida esa Amazonka bosh o'zanining kengligi ko'pdan-ko'p orollar bilan birga 80 km ga teng. Amazonka daryosi sathi pasttekislikning g'arbiy qismida deyarli qirg'oq yuzasiga to'g'ri keladi va u deyarli shakllangan vodiy hosil qilmaydi. Sharqqa tomon daryo ancha chuqur vodiydan oqadi, suvayirg'ich maydonlar bilan suv sathi orasida keskin balandlik farqi vujudga keladi.



Amazonka daryosining Peru And tog'laridan boshlanishi.

Atlantika okeanidan 350 km narida Amazonka deltasi boshlanadi. Delta qadimiy bo'lishiga qaramay, tub qirg'oqlardan tashqariga - okeanga kirib borgan emas.

Garchi daryo okeanga juda ko'p miqdorda (yiliga o'rta hisobda 1 mlrd. tonna) qattiq jins oqiziqlarini keltirsa-da, suv qalqishlari, to'lqinlar, shuningdek, sohilning cho'kishi deltaning o'sishiga imkon bermaydi.

Amazonkaning quyi oqimida uning rejimi va qirg'oqlarining shakllanishiga suv qalqishlari katta ta'sir ko'rsatadi. Okean suvining qalqib ko'tarilishidan hosil bo'lgan to'lqin daryoning yuqori oqimiga tomon 1400 km kirib boradi; to'lqinning balandligi daryo etagida - 1,5 m dan 5 m ga yetadi. Bu to'lqin oqimga qarshi yo'nalishda juda katta tezlik bilan kirib borib, qumloq sayozliklarda kuchli mavj hosil qiladi va qirg'oqlarni yemiradi. Mahalliy aholi bu hodisani «pororoka» yoki «amazonu» deb ataydi.

Amazonka yil bo'yi sersuvdir. Daryo suv sathi yiliga ikki marta ancha ko'tariladi.

Bu maksimumlar shimoliy va janubiy yarim sharlardagi yomg'irli mavsumlar bilan bog'liqdir. Amazonkada suvning eng ko'payishi janubiy yarim shardagi yomg'irli fasl (may) dan keyingi, ya'ni suvning asosiy qismini o'ng irmoqlari keltiradigan vaqtga to'g'ri keladi. Bunda daryo suvi qirg'oqlardan toshib ketadi va o'rta oqimida juda katta hududini suv bosib, go'yo o'ziga xos juda katta ichki ko'l hosil qiladi. So'ngra suv sarfi tobora kamaya borib, daryo o'z o'zanidan oqadi. Daryo suv sathi avgust va sentabrda eng pasayadi, so'ngra ikkinchi maksimum boshlanadi; bu maksimum shimoliy yarim shardagi yozgi yomg'irlar mavsumi bilan bog'liqdir. Amazonkada yozgi yomg'irlar mavsumi bir oz kechikadi va taxminan noyabrga to'g'ri keladi. Noyabrdagi maksimum may oyidagi maksimumdan ancha kuchsiz.

Daryoning transportdagi ahamiyati juda katta, Amazonka bir qancha oblastlarda Amazonka pasttekisligining ichki qismlarini Atlantika sohillari va mamlakatning boshqa qismlari bilan bog'lovchi birdan-bir suv yo'lidir. Manaus shahrigacha Amazonkadan okean kemalari kirib kela oladi. Shundan keyin daryoning bosh o'zani katta kemalar uchun sayozlik qiladi. Daryo o'zani tagida qattiq jinslar to'planishi natijasida, uning chuqurligi atigi 7 m.ni tashkil etadi. Daryoning Rio-Para deb ataluvchi janubiy o'zani bir oz chuqurroq bo'lib, unga okean kemalari kira oladi. Braziliyaning katta porti Belen shu o'zan sohilida joylashgan.

Amazonka havzasi daryolari katta suv zahiralarga ega, biroq ulardan juda sust foydalanilmoqda. Amazonkaning ko'p irmoqlari pasttekislikka oqib tushar ekan, Braziliya va Gviana tog'liklarining tik chekkalarini kesib o'tib, katta-katta sharsharalar hosil qiladi. Bulardan eng kattasi Madeyra daryosidagi San-Antonio sharsharasidir.

Janubiy Amerikaning ikkinchi katta daryo tizimi La-Plata bo'lib, u Parana, Paragvay va quyar joyi Parana bilan birlashib ketgan Urugvay daryolaridan tashkil topgan. La-Plata tizimining nomi Parana bilan Urugvayning La-Plata nomli juda katta estuariysi nomidan olingan; bu estuariyning uzunligi-320 km ga, kengligi esa quyilish joyida 220 km ga teng. Butun tizim havzasining maydoni 4 mln km² dan ortiq, Parananing uzunligi esa turli manbalarga ko'ra 3300 km dan 4700 km gacha.

Parananing bosh irmoqlari Riu-Grandi bilan Paranaiba Braziliya tog'ligida

joylashgan. Sistemaning ko'pgina boshqa irmoqlari ham shu yerdan boshlanadi. Ular barchasi yuqori oqimida juda serostona bo'lib, bir necha katta sharshara hosil qiladi. Eng katta sharsharalar Parana daryosidagi Seti-Kedas (Guayra) va Parana daryosining Iguasu irmog'idagi balandligi 80 m li Iguasu sharsharasidir.

Parana quyi oqimida tipik tekislik daryosidir. Suv sarfining eng ko'payishi may oyida Braziliya tog'ligida yog'adigan yozgi yomg'irlar bilan bog'liqdir. La-Plata sistemasi va La-Plata daryosining o'zining kema qatnovidagi ahamiyati juda kattadir.

Janubiy Amerikaning uchinchi katta daryosi Orinoko. Uning uzunligi 2500 km, havzasi maydoni 1 mln km² dan ortiq. Orinoko Gviana tog'ligidan boshlanadi. Uning boshlanish joyini fransuzlar ekspeditsiyasi 1954 - yilda topgan va o'rgangan.

Orinoko Kasikyare daryosi orqali Amazonkaning irmog'i Riu-Herpy bilan qo'shilgan bo'lib, Orinokoning yuqori oqimidagi suvning bir qismi Rio-Negruga oqib ketadi. Bu yer sharidagi eng katta daryo bifurkatsiyasiga yaqqol misoldir. Orinoko Atlantika okeani yaqinida uzunligi 200 km ga yetadigan katta delta hosil qilib tugaydi. Orinoko rejimi bir tekis emas. Daryo suv sathi butunlay yomg'irga bog'liq; yomg'ir havzasining shimoliy qismida yozda (maydan sentabrgacha) yog'adi. Orinokodagi sentabr - oktabrga to'g'ri keluvchi maksimum juda yaqqol aks etadi. Daryoning yozgi va qishki suv sathidagi farq 15 m ga yetadi.

Janubda ko'llar uncha ko'p emas. Materikdagi ko'llar paydo bo'lishiga ko'ra tektonik, muzlik, vulkan va laguna ko'llaridir. And tog'larining turli qismlarida kichikroq muzlik va vulkan ko'llari bor. Eng katta muzlik ko'llari va muzlik-tektonik ko'llar Janubiy And tog'larining g'arbiy qismidadir. Materikdagi eng katta Titikaka ko'li And yassi tog'ligida 3800 m balandlikda Peru bilan Boliviya chegarasida joylashgan. Uning maydoni 8300 km², eng chuqur joyi - 304 m. Ko'l qirg'og'ida terrasalar hosil bo'lgan, ular ko'l sathining bir necha bor pasayganligidan dalolat beradi. Ko'l suvi yanada sayozroq boshqa tektonik ko'l Poopoga oqadi. Shu sababli Titikaka ko'lidagi suv chuchuk, Poopo suvi esa juda sho'r.

And tog'larining ichki platolarida va Gran - Chako tekisligida tektonik yo'l bilan paydo bo'lgan sayoz oqimsiz va sho'r ko'llar ko'p. Bundan tashqari sho'r bosgan-botqoqliklar va sho'rxoklar (salares) ham tarqalgan.

Atlantika okeani va Karib dengizining pastak qirg'oqlarvda katta-katta laguna ko'llar joylashgan. Bu lagunalaridan eng kattasi shimolda, And tog' tizmalari orasidagi keng botiqdadir. Marakaybo deb ataluvchi bu laguna Venesuela qo'ltig'i bilan tutashgan. Bu lagunaning maydoni 16,3 km², uzunligi-220 km. Lagunadagi suv deyarli chuchuk, biroq okean suvi qalqib ko'tarilganda laguna suvining sho'rliigi ancha ortadi.

Materikning janubi-sharqida Atlantika okeanidan deyarli uzilib qolgan lagunalar bor. Bularidan eng kattalari - Patus va Mirin.

Tuproqlari va o'simliklari. Janubiy Amerika tuproq-o'simlik zonal tipining ancha xilma-xilligi va o'n minglab o'simlikni o'z ichiga oluvchi florasining nihoyatda boyligi bilan ajralib turadi.

Bu xususiyat Janubiy Amerikaning shimoliy yarim shardagi subekvatorial mintaqa bilan janubiy yarim shardagi mo'tadil mintaqa orasida joylashganligi, shuningdek, materikning rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liqdir; Janubiy

Amerika materigi avvaliga janubiy yarim shardagi materiklar bilan chambarchas bog'liq holda, keyinchalik esa katta quruqlik massivlaridan butunlay ajralgan holda rivojlandi. Materikning Panama bo'yni orqali Shimoliy Amerika bilan bo'lgan aloqasi bundan mustasnodir.

Janubiy Amerikaning 40° j. k. gacha bo'lgan katta qismi Markaziy Amerika va Meksika bilan birga Neotropik flora dunyosi (o'lkasi)ni tashkil etadi. Materikning janubiy qismi Antarktika (Golantarktika) flora dunyosi (o'lkasi)ga kiradi.

Bir vaqtlar Janubiy Amerika platformasini Afrika platformasi bilan tutashtirgan quruqlikda, aftidan, har ikki materik uchun markazi bitta bo'lgan savanna va tropik o'rmon floralari shakllangan; bu floralar tarkibida ba'zan bir xil o'simlik turi va avlodlarining uchrashi ham shuni ko'rsatadi. Biroq mezozoy oxirida Afrika bilan Janubiy Amerikaning bir-biridan ajralib ketishi har bir materikda mustaqil flora komplekslarining rivojlanishiga hamda Paleotropik va Neotropik o'simliklar dunyosining ajralib chiqishiga sabab bo'lgan. Neotropiklar o'simlik turlariga boyligi va endemikning yuksak darajada rivojlanganligi bilan xarakterlanadi; bu xususiyat neotropik floraning mezozoydan boshlab to'xtovsiz rivojlanganligi va turlar paydo bo'lishining bir qancha katta markazlari mavjudligi bilan bog'liq bo'lgan.

Janubiy Amerika florasining eng muhim endemik oilalari ananasdoshlar, nastursiyadoshlar, kannadoshlar, kaktusdoshlar va boshqalardir.

I. 5. Janubiy Amerikaning botanik-geografik rayonlashtirilishi.

Eng katta e'tiborga sazovor kaktusdoshlar oilasining shakllanish markazi, aftidan, Braziliya tog'ligida bo'lib, ular bu yerdan butun materik bo'ylab tarqalgan, pliostenda Panama bo'yni vujudga kelgandan keyin esa, shimolga ham kirib borib, Meksika tog'ligida ikkilamchi markaz hosil qilgan.

Janubiy Amerika sharqiy qismining florasini And tog'lari florasiga qaraganda ancha qadimiydir. And tog'lari florasini tog' sistemasining o'zi paydo bo'lishi bilan bog'liq holda shakllana borgan. U qisman qadimgi tropik flora elementlaridan, ko'proq esa, janubdan - Antarktida oblastidan, shimoldan - Shimoliy Amerikadan Kordilera tog'lari tomonidan kirib kelgan element.

Antarktika florasini dunyosi (o'lkasi) da 40° j. k. dan janubda endemik, turlari birmuncha kam va ancha o'ziga xos flora bor. U qadimiy Antarktida materigida Antarktida materik muzlanishlari boshlanmasdan oldin shakllangan. Bu flora - iqlim sovigan sari shimolga surilib, janubiy yarim shardagi ayrim joylarda hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan. U materikning janubiy qismida eng yaxshi rivojlangan. Janubiy Amerikaning Antarktida florasini, shuningdek, shimoliy yarim sharning Arktika va Antarktika orollarida uchraydigan ba'zi bir bipolyar (ikki qutbli) flora turlari bilan ham xarakterlanadi.

Janubiy Amerika florasini insoniyatga ko'plab qimmatbaho o'simliklarni berdi; bu madaniy o'simliklar faqat g'arbiy yarim shardagina emas, balki undan tashqarida ham tarqalgan. Bulardan eng birinchisi kartoshka bo'lib, u qadimda dastlab Peru va Boliviya And tog'larida 20° j. k. dan shimolda, shuningdek, Chilida 40° j. k. dan janubda, jumladan Chiloe orolida ham yetishtirilgan. And tog'lari pomidor, loviya va qovoqning vatanidir. Hozirgacha makkajo'xorining asl vatani va yovvoyi ajdodi uzil - kesil aniqlangan emas, biroq u neotropik flora

o'lkasidan tarqalganligi shubhasiz. Janubny Amerika, shuningdek, eng qimmatbaho kauchuklik o'simlik - geveyaning, shokolad va xin daraxtlari, maniok hamda butun yer sharining tropik oblastlarida yetishtiriladigan boshqa ko'plab o'simliklarning vatanidir. Janubiy Amerikaning inson hali ham nisbatan kam o'zgartirgan, nihoyatda boy o'simlik dunyosi juda katta tabiiy boyliklar oziq-ovqat, yem-xashak, texnika ekinlari va dorivor o'simliklarning bitmas tuganmas manbaidir.

Janubiy Amerikada Afrikada uchraydigan deyarli barcha xil tuproq va o'simlik qoplami tiplari bor. Biroq bu materikdagi floraning nisbati va turlari tarkibi bir-biridan farq qiladi. Afrikadagi asosiy o'simlik tipi savanna bo'lsa, Janubiy Amerikaning o'simlik qoplamida tropik o'rmonlar ayniqsa xarakterlidir; turlarga boyligi jihatidan ham, egallagan maydonining kattaligi jihatidan ham Yer sharida bu tropik o'rmonlarga teng keladigani yo'q.

Janubiy Amerikaning podzolsizlashgan tuproqlaridagi A. Gumbold gileya (hileya) deb atagan, Janubiy Amerikada esa selvas deb ataladigan nam tropik (ekvatorial) o'rmonlar Amazonka pasttekisligining katta qismini, Orinoko pasttekisligining unga tutash rayonlarini va Braziliya hamda Gviana tog'liklarining yon bag'irlarini egallaydi. Shuningdek, ular Tinch okean sohil bo'yi polosasining Kolumbiya bilan ekvatoridagi qismlari uchun ham xarakterlidir. Shunday qilib, nam ekvatorial o'rmonlar ekvatorial iqlimli oblastlarda tarqalgan, bundan tashqari, bu o'rmonlar Braziliya va Gviana tog'liklarining Atlantika okeaniga qaragan yonbag'irlarida, yil bo'yi passat yomg'irlari ko'p bo'ladigan yuqori geografik kengliklarda ham o'sadi.

Janubiy Amerika gileyalari turlari tarkibi va o'simlik qoplamining qalinligi (zichligi) jihatidan yer sharidagi eng boy o'simlik tipidir. Ular o'rmonlarining ancha balandligi va murakkabligi bilan xarakterlanadi. O'rmonning daryo suv bosmay-digan joylarida yaruslar soni 12 taga va baland daraxtlarning bo'yi 80 va hatto 100 metrga yetadi. Janubiy Amerika gileyalaridagi o'simlik turlarining 1/3 qismidan ortig'i endemik bo'lib, ular turlarga nihoyatda boydir. Bu jihatdan Amerika gileyalari Afrika va hatto Janubi - Sharqiy Osiyoning nam tropik o'rmonlaridan ham oldinda turadi. O'rmonlarning yuqori yarusini palmalar tashkil etadi, ular orasida palmalarning (Attalea) vinobop palma (Raphia vini fera), ulkan seyba (Ceiba pentandra) kabi turlari bor. Amerika uchun tipik bo'lgan daraxtlardan qimmatbaho va juda yog'li yong'oq beruvchi bertolestiy (Bertolletia excelsa) ni aytib o'tish lozim.

Janubiy Amerika tropik o'rmonlari uchun gullari va mevasi bevosita tanasida o'rnashgan shokolad daraxti (Theobroma) turlari ham xarakterlidir.

Madaniylashtirilgan shokolad daraxti (Theobroma cacao) ning qimmatbaho ozuqa moddalarga boy va odam organizmini mustahkamlovchi mevasi shokolad tayyorlashda xom ashyo sifatida ishlatiladi. Bu o'rmonlar-kauchuk beruvchi geveya (Neoea brasiliensis) ning vatanidir. Janubiy Amerikaning tropik o'rmonlarida ba'zi daraxtlar bilan chumolilarning simbiozini kuzatish mumkin. Bunday daraxtlar orasida stekropit (Cecropia) ning bir necha turi bor.


Janubiy Amerikaning nam tropik o'rmonlar yaroqroq va chiroyli gullaydigan liana va epifitlarga ayniqsa boydir. Bular orasida kuchalaguldoshlar, ananasdoshlar, qirqquloq turlari va go'zalligi hamda gullarining tiniq rangiga ko'ra o'ziga xos orxideyalar bor. Nam tropik o'rmonlar tog' yonbag'irlari bo'ylab

taxminan 1000-1500 m gacha chiqib boradi va uncha o'zgarmaydi.

Iqlim o'zgargan sari, ya'ni qurg'oqchil fasl bo'ladigan joylarga o'tish bilan nam tropik o'rmonlar savannalar va quruq tropik o'rmonlar bilan almashinadi. Braziliya tog'lig'ida savannalar bilan nam tropik o'rmonlar o'rtasida deyarli sof palma o'rmonlari chizig'i bor. Savannalar Braziliya tog'ligining katta qismida, asosan uning ichki rayonlarida tarqalgan. Bundan tashqari, ular Orinoko pasttekisligining katta qismlarini va Gviana tog'ligining markaziy rayonlarini egallab yotadi.

Braziliyada qizil laterit tuproqlardagi tipik savannalar «kampos» deyiladi. Undagi o't o'simliklari Paspalum, Andropogon Aristuda dukkakliklar va murakkab gullilar avlodiga kiruvchi baland bo'yli g'alladosh o'tlardan iborat. Daraxt o'simliklari butunlay yo'q yoki tanasi soyabonsimon mimozalar, daraxtsimon kaktuslar, molochaylar va boshqa xil kserofitlar bilak sukkulentlarning yakka tuplaridan tashkil topgan.

Braziliya tog'ligining qurg'oqchil shimoli-sharqida katta maydonlarni «kaatinga» qoplagan; «kaatinga» deb, qurg'oqchilikka chidamli daraxt va butalardan tashkil topgan siyrak o'rmonga aytiladi. Bu daraxt va butalarning ko'pi quruq faslda bargini tashlaydi, boshqalari masalan, paxmoq (Cavanillesia arborea) bochkasimon tanasiga suv to'plab oladi. Kaatingadagi daraxtlar tanasi va shoxlarini liana hamda epifitlar qoplab olgan. Palmaning ham bir necha turi uchraydi. Kaatinganing eng ajoyib daraxti o'simlik mumi olinadigan karnauba palmasi (Copernicia cerifera) dir; o'simlik mumi daraxtini teshib yoki katta-katta (uzunligi 2 m gacha) barglarini qaynatib olinadi. Mum sham tayyorlash, pollarni artish uchun va boshqa maqsadlarda foydalaniladi.



Karnauba daraxti tanasining tepa qismidan sago (kraxmal krupa) va palma uni olinadi, bu o'simlik yaprog'i uylar tomini yopish va turli asboblar to'qishda, ildizi - meditsinada foydalaniladi, mevasini esa mahalliy aholi xomligicha yoki qaynatib yeydi. Braziliyaliklar karnaubani hayot daraxti deb bejiz atashmagan.

Braziliya tog'ligining sharqidagi nam tropik o'rmon

Kaatinga tagida jigar rang-qizil tuproqlar hosil bo'ladi. Gran-Chakotekisligida, ayniqsa qurg'oqchil rayonlardagi jigar rang qizil tuproqlarda tikanli butazorlar va siyrak o'rmonlar tarqalgan. Bu o'rmonlarda boshqa - boshqa oilaga kiruvchi ikki daraxt turi o'sadi va u bir umumiy nom bilan kebracho, ya'ni bolta sindirar deb ataladi. Bu daraxtlar tarkibida oshlovchi moddalar ko'p: qizil kebrachoda (*Schinopsis Lerentru*) 25% gacha, oq kebrachoda (*Aspidos-perma quebracho*) undan biroz kamroq. Bu daraxtlarning yog'ochi og'ir, zich, pishiq, chirimaydi va suvda cho'kadi. Kebracho ko'plab kesilmoqda. Undan maxsus zavodlarda teri oshlovchi modda olinadi, yog'ochidan shpallar, yerga ko'miladigan ustunlar va suvda uzoq vaqt turadigan boshqa xil predmetlar tayyorlanadi. O'rmonlarda shuningdek, algarrobo (*Prosopis juliflora*) uchraydi; uning tanasi egri - bugri bo'lib o'sadi, shoxlari atrofga mayda nozik barg'lari keng tarvaqaylab ketadi. Algarroboning soya bermaydi. O'rmonlarning pastki yarusi ko'pincha qalin va o'tib bo'lmaydigan tikanli butazorlardan iborat.

Shimoliy yarim shar savannalari tashqi ko'rinishiga va florasining turlari tarkibiga ko'ra janubiy yarim shar savannalaridan farq qiladi. G'alladosh va ikki pallali o'simlik qoplamasi orasida palma daraxtlari; quruqroq joylarda-kopernik palmasi (*Copernicia tectorum*) botqoqlangan yoki daryo suvi bosadigan zax joylarda mavrikiy palmasi (*Marritia flexuosa*) qad ko'targan. Bu palmalarning yog'ochi qurilish materiali sifatida foydalaniladi, bargidan turli buyumlar to'qnladi, mevasi va daraxt tanasining o'rtasi yoyiladi. Akatsiya va daraxtsimon baland kaktuslar ham ko'p.

Tinch okean sohilining 5° j. k. bilan 27° j. k. orasidagi qismi va muttasil yomg'irsiz iqlimi sharoitidagi Atakama botig'i Janubiy Amerikada eng tipik aks etgan tuproq va o'simlik qoplamiga ega. Deyarli unumsiz toshloq tuproqli joylar to'zima qumli massivlar va tarkibida selitra bo'lgan sho'rxok tuproqli keng maydonlar bilan almashinib keladi. Nihoyatda siyrak o'simlik qoplamasi siyrak kaktuslar, yostiqlimon tikanli butalar va piyozchali hamda tuganakli o'simliklardan iborat efemerlardan tarkib topgan.

Janubiy Amerikada subtropik o'simliklar nisbatan kichik maydonda tarqalgan. Braziliya tog'ligining yog'inlar yil bo'yi ko'p bo'ladigan chekka janub-sharqi araukariya subtropik o'rmonlari bilan qoplangan; bu o'rmonlarda turli-tuman butalar, shu jumladan, paragvay choyi (*Ilex paraguayensis*) o'sadi. Mahalliy aholi paragvay choyi bargini qaynatib, choy o'rniga ichiladi. Bu ichimlik dumaloq idishda tayyorlanganligi uchun nomi ham shu idish nomi bilan mate yoki yerba mate deb ataladi.

Janubiy Amerikadagi subtropik o'simliklar qoplamining ikkinchi tipi-subtropik dasht yoki pampa La-Plata pasttekisligining 30° j. k. dan janubdagi sharqiy eng sernam qismlari uchun xarakterlidir; pampa-vulkanik jinslarda paydo bo'lgan unumdor qizg'ishqora tuproqlarda o'sadigan g'alladosh o't o'simliklar qoplamidan iborat. Pampa o'simliklari Yevropaning mo'tadil mintaqada dashtlarida keng tarqalgan g'alladosh o't o'simliklar turkumlarining Janubiy Amerikaga xos turlaridan tarkib topgan. Bu yerda chalov, qorachayir, yovvoyi suli turlari uchraydi. Pampa bilan Braziliya tog'ligi o'rmonlari orasida o'rmondashtga o'xshash oraliq tipdagi o'simlik qoplamasi joylashgan bo'lib, bu yerda o'tlar bilan doimiy yashil butalar aralash o'sadi. Pampa o'simliklari eng ko'p qirilib ketgan, chunki hozirgi vaqtda pampa o'rnini deyarli butunlay bug'doy va boshqa xil ekin

dalalari egallagan.

Pampadan g'arb va janubga tomon yog'inlar kamaya borishi munosabati bilan sur - qo'ng'ir hamda bo'z tuproqlarda quruq subtropik dasht va chalacho'l o'simliklari tarqalgan; ular orasida suvi qurib qolgan ko'llar o'rnida paydo bo'lgan sho'rxoklar uchraydi.

Tinch okean sohilining subtropik o'simliklari va tuproqlari tashqi qiyofasiga ko'ra Yevropa o'rta dengizi bo'yining o'simligi va tuproq qoplamini eslatadi. Bu yerlarning jigar rang tuproqlarida doimiy yashil butazorlar ustun turadi.

Janubiy Amerikaning chekka janubi-sharqi (Patagoniya) mo'tadil mintaqaning quruq dasht va chalacho'l o'simliklari bilan xarakterlanadi. Bu yerlar aslida Pampaning g'arbiy qismidagi chalacho'llarning ancha og'ir va sovuq iqlim sharoitidagi davomidir.

Sur-qo'ng'ir tuproqlar ustun turadi, sho'r bosgan tuproqlar ham keng tarqalgan. O'simlik qoplamida g'alladosh baland o'tlar (Roa flabellatq va boshqalar) va ko'pincha yostiqlimon shaklga ega bo'lgan turli xil kserofit butalar (Bolax, Axorella) hamda past bo'yli kaktuslar ustun turadi.

Materikning yillik harorat tafovutlari kam va yog'inlar miqdori ancha ko'p bo'lgan okeanik iqlimli chekka janubi-g'arbiy qismida namsevar doimiy yashil subarktika o'rmonlari o'sadi; ular ko'p yarusli va o'simliklar turiga ko'ra juda xilma-xildir. Turlarga boyligi va o'rmon qoplamini strukturasi murakkabligi jihatidan ular tropik o'rmonlardan qolishmaydi. Bu o'rmonlarda liana, mox va lishayniklar juda serob.

Bu yerda Fitzroya, Araukaria va boshqa turlarga kiruvchi xilma-xil baland bo'yli nina bargli daraxtlardan tashqari, janubiy buk (Nothophagus), magnoliya kabi doimiy yashil bargli daraxtlar ham o'sadi. O'rmonlar tagida qirqquloq va bambuk (g'arov) ko'p. Namga to'yingan bu zax o'rmonlarni ochish, ya'ni kesish va kundakov qilish ancha qiyin. Ular katta maydonlarda hanuzgacha qo'l tegizilmagan holda saqlanib qolgan bo'lib, tarkibi o'zgarmagan holda tog' yonbag'irlar bo'ylab 2000 m gacha chiqib borgan. Bu o'rmonlarning tuproqlari o'rmon qo'ng'ir tuproqlaridir.

Janubga tomon iqlim sovib borgan sari o'rmonlardagi o'simlik turlari kamaya boradi, lianalar, daraxtsimon qirqquloqlar va bambuk (g'arov) uchramaydi. Igna bargli daraxtlar (Libocedrus, Podocarpus) keng tarqalgan, biroq doimiy yashil buk va magnoliyalar ham saqlanib qolgan. Bu siyrak subantarktika o'rmonlarining tuproqlari podzol tuproqlardir.

Hayvonot dunyosi. Janubiy Amerikaning hayvonot dunyosi ham turlarga boyligi jihatidan o'simlik qoplamidan qolishmaydi. Materikning hozirgi faunasi uning florasi kabi bo'r davrining oxiridan boshlab orol tarzda ajralib qolgan va iqlim kam o'zgargan sharoitda shakllangan. Faunasining qadimiyligi va uning tarkibida endemik formalarning ko'pligi shundan darak beradi. Shu bilan birga Janubiy Amerika hayvonot dunyosining ko'pdan - ko'p eng qadimiy turlari boshqa materiklarda ham uchraydiki, bu hol materiklar, quruqlik orqali qadimdan o'zaro bog'langanligidan darak beradi. Faqat Janubiy Amerika bilan Avstraliyadagina saqlanib qolgan qopchiqli hayvonlar bunga misol bo'la oladi. Janubiy Amerikadagi hamma maymunlar keng burunli gruppaga kiradi va ularning tarqalish areali tropik o'rmonlargagina to'g'ri keladi.

Janubiy Amerika faunasining o'ziga xos xususiyati-uning tarkibida kovak

tishlilarning bir otryadga kiruvchi uch oilasining mavjudligidir. Janubiy Amerikada yirtqichlar, tuyoqlilar va kemiruvchilarning ko'pdan-ko'p endemik turi, avlodi va hatto oilasi bor. Janubiy Amerika (Markaziy Amerika bilan birga) Neotropik fauna oblasti sifatida ajratiladi va bu oblastning Braziliya hamda Chili Patagoniya pod oblastlariga kiradi.

Nam tropik o'rmonlar o'ziga xosligi va turlarga boyligi bilan ajralib turadi; biroq hayvonlar bu o'rmonlar landshaftida uncha katta rol o'ynamaydi; chunki ular qalin o'rmonlar orasida yashirilib yoki ko'p vaqt baland daraxtlarda yashaydi. Hayvonlarning daraxtlarda yashashga moslashganligi Amazonka o'rmonlarining xarakterli xususiyatlaridan biridir; bu jihatdan Amazonka o'rmonlari Afrikadagi Kongo havzasi yoki Osiyodagi Malayya arxipelagi o'rmonlari hayvonlarini eslatadi.

Janubiy Amerikaning tropik o'rmonlarida keng burunli Amerika maymunlarining hamma turi uchraydi va ular ikki mustaqil oilani: igrunkasimonlar va stebidlarni tashkil etadi.

Birinchi oila (igrunkasimonlar) ga kiruvchi maymunlar kichik bo'ladi. Bu maymunlardan eng kichigining bo'yi 15 - 16 sm dan oshmaydi, oyoq panjasidagi tirnoqlari ularning daraxt shoxlarida mustahkam chirmashib turishiga yordam beradi.

Stebidlar dumining baquvvatligi bilan xarakterlanadi; bu maymunlar daraxt shoxlariga dumi bilan yopishib oladi va ularning dumi beshinchi panja vazifasini bajaradi. Stebidlar orasida chinqiroq maymunlar avlodi alohida ajralib turadi; tovushi juda uzoqdan eshitilganligi uchun ular chinqiroq maymunlar deb atalgan. Panjasi uzun va egiluvchan o'rgimchaksimon maymunlar ham keng tarqalgan.

Tropik o'rmonlarda kovak tishli maymunlar otryadi vakillaridan yalqov maymunlar (*Bradypodidae*) uchraydi. Ular juda kam harakat qiladi va ko'p vaqt daraxtlarda osilib yotib, barg hamda novdalar bilan oziqlanadi. Yalqov maymunlar daraxtlarda bemalol yuradi, yerga esa kamdan-kam tushadi.

Ba'zi chumolixo'rlar ham daraxtlarda yashashga moslashgan. Masalan, tamandua daraxtda erkin harakat qilib yuradi; dumi baquvvat bo'lgan kichik chumolixo'r ham ko'p vaqtini daraxtda o'tkazadi. Katta chumolixo'r o'rmon va savannalarda tarqalgan bo'lib, yerda yashaydi.

Subtropik o'rmonlarda yashovchi mushuksimon yirtqich hayvonlar oilasiga ostelot, kichik yaguarundi va katta hamda kuchli yaguarlar kiradi. Itsimon hayvonlar oilasiga kiruvchi yirtqich hayvonlardan kam o'rganilgan o'rmon yoki butazor iti e'tiborga sazovor; u Braziliya, Gviana, Surinam va Gayananing tropik o'rmonlarida yashaydi. Daraxtlarda ovqatlanadigan o'rmon hayvonlariga nosuxa (*Nasua*) va kinkaju (*Potos flaus*) kiradi.

Janubiy Amerikada kam uchrovchi tuyoqli hayvonlarning atigi bir necha avlodi bor. Bular orasida tapir (*Tapirus terrestris*), kichikroq qora to'ng'iz - pekar va Janubiy Amerika nayza shoxli pakana kiyiklari bor. Amazonka pasttekisligi va Janubiy Amerikaning boshqa rayonlari o'rmonlarida yashovchi xarakterli kemiruvchi hayvonlardan biri daraxtlarda epchil harakat qiluvchi chayir dumli jayra-koendu (*Coendy*) dir. Braziliya o'rmonlarida yashovchi aguti (*Dasyprocta aguti*) tropik ekinzorlarga katta zarar etkazadi.

Materikning hamma joyida, ayniqsa Amazonka o'rmonlarida, suv cho'chqasi kapibara (*Hydrochoerus capibara*) tarqalgan; u kemiruvchi hayvonlar

orasida eng yirigi bo'lib, tanasining uzunligi 120 sm ga yetadi. Janubiy va Markaziy Amerika o'rmonlarida qopchiqli kalamushlar yoki opossumlarning turlari bor. Ulardan ba'zilar dumi bilan daraxtlarda chirmashib yura oladi. Amazonka o'rmonlarida ko'rshapalaklar nihoyatda ko'pdir; ular orasida issiqqonli hayvonlarning qoni bilan oziqlanuvchi turlari ham bor.

O'rmonlarda sudraluvchi va suvda-quruqlikda yashovchi hayvonlar ham turlarga juda boy. Sudraluvchilardan juda katta suv bo'g'ma iloni-anakonda (*Eunectes murinos*) va quruqlikda yashovchi boa-konstriktor (*Constrictor constrictor*) ajralib turadi. Zaharli ilonlar, kaltakesaklar ham ko'p. Daryo suvlarida timsohlar yashaydi. Suv-quruqlikda yashovchi hayvonlardan baqalar ko'p, ulardan ayrimlari daraxtda yashaydi.

O'rmonlarda xilma-xil qushlar, ayniqsa rangi yarqirab tovlanuvchi to'tiqushlar ko'p. To'tiqushlarning eng kattasi ara eng tipikdir. Bundan tashqari, chumchuqsimon mayda to'tiqushlar va patlari chiroyli yarqirab turuvchi yashil to'tiqushlar ham keng tarqalgan. Janubiy Amerika, jumladan tropik o'rmonlari ornito-faunasp (qushlari) ning eng xarakterli vakili kolibrilardir. Nihoyatda xilma-xil rangli bu kichik qushchalar gullarning nektari (shirasi) bilan oziqlanishi sababli hasharot qush nomini, olgan.

O'rmonlarda, shuningdek, jo'jalarining qanotida daraxtga chirmashib chiqishiga yordam beradigan tirnog'i bo'lgan goastinlar (*Opisthocomus goatzin*), quyosh qarqasi va qayiqcha tumshuqli qarqaralar, yosh bug'u, maymunlar, jumladan, yalqov, maymunlar bilan oziqlanuvchi bahaybat qushlar garpiyalar ham yashaydi.

Materikdagi tropik o'rmonlarning xususiyatlaridan biri – hasharotlarning nihoyatda ko'pligidir; ularning ko'pi – endemiklardir. Bu yerda kunduzgi va tungi kapalaklar, xilma-xil qo'ng'izlar, chumolilar ko'p. Ko'pgina kapalak va qo'ng'izlar ajoyib tovlanadi. Ba'zi qo'ng'izlar kechasi shu qadar yaltirab nur tarqatadiki, uning yaqinida kitob o'qish mumkin. Kapalaklar juda kattadir; ularning eng kattasi – agrippa – qanotini yoyganda uzunligi deyarli 30 sm ga yetadi.

Janubiy Amerikaning tropik o'rmonlarida ko'plab chumoli turlari bor. Bog`bon chumolilar deb ataluvchi chumolilar ayniqsa ajoyibdir, ular daraxt tepasiga tuproq va epifit o'simliklari urug'ini olib chiqib, o'ziga xos bog`bunyod etadi. Shuningdek estiton nomli sayyoh chumolilar ham ma'lum. Ular ma'lum bir joyga in qo'ymay, o'rmon bo'ylab kezib, o'z yo'lidagi mayda hasharotlar, endigina tuxumdan chiqqan qurtlar, hatto kichik umurtqali hayvonlarni qiradi. O'simliklar, ayniqsa madaniy daraxtlarga bargteshar chumolilar katta zarar yetkazadi, ular daraxt barglarini yeyaverib, ularni quritadi. Ammo chumolilarning bir turi Amazonka-o'rmonlarida eng ko'p tarqalgan daraxtlardan birstekropiyaiing tanasiga in qo'yib, bu daraxtni tekinxo'r hasharotlar (parazitlar) dan tozalaydi.

Janubiy Amerikadagi birmuncha qurg'oqchil va yalang erlar ya'ni, savannalar, tropik siyrak o'rmonlar hamda subtropik dalalar faunasi qalin o'rmonlar faunasidan boshqachadir. Bu yerlarda yirtqich hayvonlardan, yaguardan tashqari puma (u butun Janubiy Amerikada uchraydi va Shimoliy Amerikaga ham o'tib turadi), ostelot, patipa mushugi tarqalgan. Itsimonlar oilasiga kiruvchi yirtqich hayvonlardan materikning janubiy qismi uchun yolli bo'ri xarakterli.

Tekisliklar va tog'li rayonlarda butun materik bo'ylab pampa tulkisi, eng janubda esa magellan tulkisi uchraydi. Tuyoqli hayvonlardan kichikroq pampa bug'usi tarqalgan.

Savanna, o'rmonlar va ekin dalalarida Amerika kovak tishli kemiruvchilari uchinchi oilasining vakili zirhlilar (*Dasypodidae*) yashaydi; uning suyakdan tarkib topgan qattiq qalqoni (kosasi) bor. Zirhlilar xavf tug'lsa yerga qazib kirib ketadi. Savanna va dashtlarda kemiruvchilardan yana viskacha va yer tagida tukotuko uchraydi. Suv havzalari qirg'oqlarida botqoqlik qunduzi yoki nutriya tarqalgan, uning mo'ynasi jahon bozorida yuqori baholanadi.

Qushlardan ko'p sonli to'ti va kolibridan tashstari Janubiy Amerika tuyaqushi nandu (*Rhea*), ba'zi bir yirik yirtqich qushlar yashaydi. Savanna va dashtlarda ilon va ayniqsa, kaltakesaklar ko'p. Afrika kabi, Janubiy Amerika landshaftining xarakterli xususiyati termitlar inining juda ko'pligidir. Janubiy Amerikaning ayrim oblastlari vaqt-vaqti bilan chigirtka bosib kelishidan zarar ko'radi.

And tog'lari faunasi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu fauna materikning sharqiy qismida uchramaydigan ko'plab endemik hayvonlarni o'z ichiga oladi. And tog'lari oblastining hamma qismida tuyasimon hayvonlar oilasining Janubiy Amerikaga xos vakili lamalar tarqalgan. Yovvoyi lamalarning ikki turi mavjud; bular - vigon (vikunya – *Lama icugna*) va guanako (*L. guanicoe*) dir. Ilgari hindular lamalarni go'shti va terisi uchun ko'plab ovlaganlar. Bir vaqtlar guanako lamasi tog'lardagina emas, balki Patagoniya yassi tog'ligi va Pampada ham yashagan. Endilikda yovvoyi lamalar kam qolgan. Hindular And tog'larida lamaning ikki xonaki turini – asl lama va alpakuni boqib ko'paytiradilar. Lamalar (*Lama glama*) yirik va kuchli hayvonlardir. Unda yurish qiyin bo'lgan tog' yo'llaridan yuk tashiladi, go'shti va suti iste'mol qilinadi, junidan dag'al gazlama to'qiladi. Alpaku (*Lama pacos*) ni faqat mayin juni uchun boqib ko'paytiriladi.

And tog'larida, shuningdek, ko'zoynakli ayiq va ba'zi bir qopchiqlilar yashaydi. Ilgari kichik endemik kemiruvchi hayvon-shinshilla (*Chinchilla*) keng tarqalgan edi. Uning sur tusli yumshoq, ipaksimon mo'ynasi eng yaxshi va qimmatbaho mo'ynalardan hisoblanar edi. Shu sababli shinshilla ko'plab ovlanaverib, hozirgi vaqtda juda kam qolgan. And tog'laridagi qushlar odatda materikning sharqiy qismidagi kabi tog'larga xos endemik avlodlar va oilalardan iborat. Yirtqich qushlardan bu otryadga kiruvchi eng yirik qush kondor (*Uru guirapus*) katta qiziqish uyg'otadi.

Vulkanik yo'l bilan paydo bo'lgan Galapagos orollari faunasi g'oyat o'ziga xosligi bilan ajralib turadi; bu fauna tarkibida yirik sudraluvchi hayvonlardan quruqlikda yashovchi bahaybat toshbaqalar va dengiz kaltakesaklari-iguonalar alohida o'rin tutadi. Shuningdek turli-tuman qushlar ham ko'p; bular orasida ham tropiklarga, ham Antarktidaga xos fauna turlari (to'tiqushlar) va sovuq oqimlar bilan birga kirib kelgan pingvinlar, baklan va boshqalar bor. Sut emizuvchi hayvonlarning turi uncha ko'p emas, ulardan qulog'i katta tyulen, ba'zi bir kemiruvchilar va ko'rshapalaklarni aytib o'tish mumkin. Orolga keltirilgan ko'pgina hayvonlar (echki, it, cho'chqa) yovvoyilashib ketgan. Galapagos orollari hozirgi vaqtda qo'riqxonaga e'lon qilingan.

II BOB. Janubiy Amerika materigining aholisi va davlatlari.

2.1. Aholisi

Janubiy Amerikada aholi kam va juda notekis joylashgan. Materikning faqat chekka qismlarida, asosan Atlantika okeani sohillarida va And tog'larining ayrim rayonlarida aholi zich o'rnanishgan. Shu bilan birga ichki rayonlarda, masalan, o'rmon bilan qoplangan Amazonka pasttekisligida aholi deyarli butunlay yo'q.

Janubiy Amerikaning tub joy aholisi bo'lgan hindularning qayerdan kelganligi masalasida uzoq vaqtgacha fikrlar turlicha bo'lgan. Janubiy Amerikaga Osiyodan mongoloidlar eramizdan taxminan 20-30 ming yil ilgari Shimoliy Amerika orqali kelib o'rnanishgan, degan taxmin eng keng tarqalgan. Lekin, ba'zi bir olimlar Janubiy Amerika hindu xalqlari bilan Okeaniya xalqlarining ba'zi bir antropologik o'xshashliklariga (burnining yapaloqligi, sochining to'liqlinsimonligi, soqolining qalinligi) va ularda bir xil mehnat qurollari borligiga asoslanib, aholi Janubiy Amerikaga Tinch okean orollaridan kelib o'rnanishgan, degan fikrni aytadilar. Biroq, bu fikr tarafdorlari ozchilikni tashkil etadi. Ko'pchilik olimlar Janubiy Amerika sohilida okeaniyaliklar belgilarining mavjudligini bu yerga Osiyoning shimoli-sharqi va Shimoliy Amerika orqali mongoloid xalqlar bilan birga Okeaniya irqining vakillari ham kirib kelishi mumkin deb tushuntirishadi.

Janubiy Amerika hindularining hozirgi vaqtdagi soni, "oqlar" hukmronlik qilgan vaqtda juda qisqargan bo'lishiga qaramay Shimoliy Amerikadagidan ancha ko'p. Ba'zi bir mamlakatlarda hindular hozirgi vaqtga qadar aholining anchagina foizini tashkil etadi. Peru, Ekvador va Boliviya da hindular aholining yarmiga yaqinini tashkil etadi, ba'zi o'lkalarda esa ko'pchilikni tashkil qiladi. Paragvay aholisining katta qismini kelib chiqishiga ko'ra hindulardir, Kolumbiya da ham hindular ko'p. Argentina, Urugvay va Chilida hindular mustamlakachilikning dastlabki davridayoq deyarli butunlay qirib tashlangan, hozir bu mamlakatlarda ular juda kam. Braziliya da ham to'xtovsiz kamayib bormoqda.

Umuman olganda, Janubiy Amerika hindular juda zaif o'rganilgan va hozirga qadar ularning yetarli darajada ilmiy yagona klassifikatsiyasi yo'q. Janubiy Amerikaning barcha aholisi antropologik jihatdan bir xil va Shimoliy Amerika hindulariga yaqin turadi. Hindu xalqlarining tillariga ko'ra klassifikatsiyasi yaxshiroq ishlangan. Biroq bu masalada qabul qilingan bir xil fikr yo'q, chunki Janubiy Amerika hindularining tili juda xilma-xil va ulardan ko'pi o'ziga xos tilga egaki, ularni til oilasi yoki guruhiga almashtirish mumkin emas. Bundan tashqari, ilgari materikda tarqalgan til oilalari va ayrim tillar hozir deyarli yoki butunlay yo'qoldi, chunki bu tillarda so'zlashuvchi xalqlar yevropaliklar mustamlakachiligi natijasida o'lib bitdi. Boshqalardan ajralgan holda yashovchi ko'pgina hindu elatlari va xalqlari tillari hozirgi vaqtga qadar ham deyarli o'rganilmay qolib kelmoqda.

Janubiy Amerikaning tubjoy aholisi yevropaliklar mustamlakachilik boshlanishi oldidan rivojlanish darajasiga ko'ra ikkita katta gruppaga bo'linar edi. Bu tafovutlar muayyan darajada hozirgi vaqtgacha ham saqlanib qolgan. And tog'laridan sharqdagi yerlarda joylashgan xalqlar ibtidoiy jamoa bosqichida bo'lib, hayot uchun zarur narsalarini ovchilik, baliq tutish, mevalar yig'ish yo'li bilan topar edi. And tog'larida Tinch okean sohillarida hindularning yuqori darajada dehqonchilik va chorvachilik madaniyatiga erishgan, hunarmandchilik amaliy san'at rivojlangan va ilmiy bilimlarga asos solingan kuchli davlatlari tashkil topgan

edi.

Yevropaliklar mustamlakachiligi jarayonida va mustamlakachilar bilan bo'lgan qattiq janglar natijasida hinduning ba'zilari butunlay qirilib bitdi, ba'zilari esa o'z joylaridan kimsasiz va noqulay yerlarga siqib chiqarildi. Ba'zi hindu xalqlari o'zlarining ilgarigi joylarida yashab kelmoqda. Lekin, hindular hamma hollarda ham Janubiy Amerika davlatlari aholisining eng kambag'al va ekspluatatsiya qilinuvchi qismini tashkil qiladi. Hozirgi vaqtga qadar ham boshqa aholidan ajralgan holda yashaydigan va rivojlanish darajasi hamda turmush ahvoli yevropaliklar bostirib kelgan vaqtdagi darajada qolib kelayotgan qabilalar mavjud. Ular boshqa aholi bilan deyarli aloqa qilmaydi.

Quyida hindu xalqlarining aholisi soni eng ko'p va eng yaxshi o'rganilgan ba'zi bir guruhlarini sanab o'tilgan. Bular u yoki ilgarigi vaqtda materik aholisining anchagina qismini tashkil etgan. Braziliyaning ichki rayonlarida jetil oilasi qoldiqlari hozir ham mavjud. Yevropaliklar materikka kelgan vaqtda bu qabilalar Braziliyaning sharqiy va janubiy qismlarida yashar edi. Lekin ularni mustamlakachilar mamlakatning ichki o'rmonli va botqoq bosgan rayonlariga siqib chiqargan. Bular Janubiy Amerikaning ibtidoiy jamoa tuzumini hozirga qadar ham saqlab qolgan va daydib hayot kechiruvchi xalqlaridan biridir.

Janubiy Amerikaning chekka janubidagi aholi — olovli yerliklar yevropaliklar kelganiga qadar taraqqiyotning juda past pog'onasida edi. Ular kiyim tikishni bilishmagan, sovuqdan hayvonlar terisiga o'ranib saqlanishgan, qurollarini suyak va toshdan yasashgan, guanako ovlab hamda dengizdan baliq tutib kun ko'rishgan. Dengizda o'yma yog'och qayiqlarda chiqishgan. Olovli yerliklar XIX asrda juda qattiq qirg'in qilingan va hozir juda kam saqlanib qolgan.

Materikning markaziy va shimoliy qismida Orinoko hamda Amazonka havzalarida yashagan qabilalar taraqqiyotining yuqoriroq darajasida bo'lgan. Ular hozir ham oddiy dehqonchilik bilan shug'ullanib, makkajo'xori, paxta yetishtirishadi. Ular kamon va nayza otuvchi naydan foydalanib ov qilishadi, bunda tez ta'sir etuvchi o'simlik zahari kuraredan foydalanishadi.

Argentina Pampasi va Patagoniyada yashagan qabilalar yevropaliklar kelganiga qadar piyoda yuruvchi ovchilar bo'lganlar. Ispanlar materikka otlar olib kelishdi, otlar bu yerda tezda yovvoyilashib ko'payib ketdi. Hindular otlarni qo'lga o'rgatishni bilib oldilar va guanako ovida ulardan foydalaniladigan bo'ldilar. Argentinada kapitalizm jadal rivojlangan davrda ispanlar mahalliy aholini qirdilar va Patagoniyaning janubiy chekka qismidagi g'allachilik xo'jaligi uchun yaroqsiz yerlarga siqib chiqardilar. Pampada hozirgi vaqtda mahalliy aholi deyarli butunlay yo'q. Yirik dehqonchilik xo'jaliklarida chorikor bo'lib ishlovchi kichik-kichik hindu to'dalarigina bor, xolos.

And tog'larining Peru, Boliviya va Ekvadordagi baland yassi tog'larda joylashgan qabilalar yevropaliklar kelganiga qadar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida hammadan yuqori cho'qqiga erishgan edi. Bu yerlarda obikor dehqonchilikning eng qadimgi markazlaridan biri joylashgan.

XV asrning birinchi yarmida kechua tili oilasiga mansub eng kuchli qabilalardan biri bo'lgan inklar And tog'laridagi tarqoq, mayda xalqlarni birlashtirdi va tashkil topgan kuchli davlatga boshchilik qildi. Inkalar Chilining hozirgi territoriyasigacha bo'lgan tog' oblastining barcha xalqlarini o'zlariga bo'ysuntirdilar va o'z ta'sirlarini bundan ham janubiy rayonlarga o'tkazdilar.



Kusko shahri atrofida yashovchi hindu-kechua

Bu yerlarda o'troq dehqonlardan iborat araukanlarning mustaqil, lekin inklarnikiga yaqin madaniyati vujudga kelgan. Inklarning asosiy mashg'uloti obikor dehqonchilik edi, ularning ekin dalalari tog'lar yonbag'irlaridagi teraslarda bo'lib, suvni tog' daryolaridan chiqarishgan, 40 turdan ortiq foydali o'simlik yetishtirishgan. Inklar yovvoyi lamalarni qo'lga o'rgatishib, ulardan yuk tashishda foydalanishgan, xonaki turlaridan sut, go'sht, jun olishgan. Inklar tog' yo'llari qurish va lianalaridan ko'priklar yasashni bilishlari bilan ham tanilgan. Ular ko'pgina hunarmandchilik - kulolchilik, to'quvchilik, oltin va misga ishlov berish va boshqalarni ham bilishgan. Inklar oltindan badiiy bezak buyumlari va dinga oid buyumlar yasaganlar. Inklar davlatida yerga xususiy va jamoa mulkchiligi mavjud bo'lgan davlat boshida cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan oliy oqsoqol turgan.

Inklar madaniyati ispan istilochilari tomonidan shafqatsiz yakson qilindi, lekin uning ayrim yodgorliklari yo'llar, binolarning qoldiqlari, sug'orish inshootlari hozirgacha saqlanib qolgan.

Inklar davlati tarkibiga kirgan ba'zi bir xalqlar hozirgacha And tog'larining cho'ldan iborat baland yassi tog'larida yashaydi. Ular yerga ibtidoiy usulda ishlov berib, kartoshka, kinoa va boshqa ekinlar yetishtiradilar. Ularning bir qismi boshqa korxonalarda va konlarda ishlaydi, lekin ular oq tanlilarga qaragandan ancha kam maosh olishadi.

Hozirgi vaqtdagi eng ko'p sonli hindu xalqi – kechualar Peru, Boliviya, Ekvador, Chili va Argentinaning tog'li rayonlarida yashaydi. Titikaka ko'li sohillarida dunyoniig eng baland tog' xalqlaridan biri bo'lgan aymarlar yashaydi.

Chilining tub joy aholisi asosini umumiy nom bilan araukanlar deb ataluvchi va dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar guruhi tashkil etgan edi. Ular uzoq vaqtga qadar ispanlarga bo'ysunishmagan va faqat XVIII asrdagina ularning bir qismi mustamlakachilar siquvi ostida Pampaga ko'chib o'tgan. Araukanlar (mapuchelar) Chilining janubiy yarmida ularning uncha katta bo'lmagan bir

qismigina Argentina Pampasida joylashgan.

And tog'larining shimoliy qismida, hozirgi Kolumbiya hududida ispan mustamlakachilari kelmasdan oldin chibcha- muischibchalarning avlodlari bo'lgan kichik – kichik qabilalar Kolumbiyada va Panama bo'yida yashaydi. Ular urug'chilik – qabila tuzumining qoldiqlarini saqlab qolgan.

Yevropadan Amerikaga oilasiz ko'chib kelgan dastlabki kelgindilar hindu ayollari bilan nikohga kirganlar. Natijada chatishma metis aholi yuzaga keldi. Hozirgi vaqtda materikda yevropoid irqining “sof vakillari” deyarli butunlay yo'q. Eng keyin kelgan emmigrantlar bundan mustasno. “Oqlar” deb ataluvchi xalqning katta qismida ozmi – ko'pmi hindu (yoki negr) qoni bor. Bu chatishgan aholi (metislar, chololar) Janubiy Amerikadagi deyarli barcha mamlakatlar aholisining asosiy ko'pchiligini tashkil etadi.

Aholining anchagina qismini, ayniqsa Atlantika bo'yidagi o'lkalarini (Gviana, Surinam, Braziliya, Gayanada) negrlar tashkil qiladi. Bular mustamlaka qilishning dastlabki davrlarida, ya'ni plantastiyalarda ishlatish uchun ko'p va arzon ishchi kuchi kerak bo'lgan vaqtda Janubiy Amerikaga keltirilgan negr qullarning avlodlaridir. Negrlarning bir qismi oq va hindu aholi bilan chatishgan. Buning natijasida ham chatishma aholi: negrlar bilan oqlardan mulatlar, negrlar bilan hindulardan sambolar vujudga kelgan.

Negr qullar ekspluatatsiyadan qutulish uchun o'z xo'jayinlaridan qochib, tropik o'rmonlarga yashirinib edi. Ularning hindular bilan qisman chatishgan avlodlari ba'zi joylarda hozirga qadar ham ibtidoiy o'rmon xo'jaligi bilan shug'ullanib keladi.

Janubiy Amerika respublikalarining mustaqilligi e'lon qilinguncha, ya'ni XIX asrning birinchi yarmiga qadar Janubiy Amerikaga boshqa mamlakatlardan ko'chib kelish (emmigrastiya) man etilgan edi. Lekin yangidan tashkil topgan respublikalarning hukumatlari o'z mamlakatlarini rivojlantirishni va bo'sh yotgan yerlarni o'zlashtirishni ko'zlab, emmigrastiyaga yo'l ochib berdi. Buning natijasida Yevropa va Osiyoning turli mamlakatlaridan Janubiy Amerikaga ancha miqdorda kishilar ko'chib keldi. Italiya, Germaniya, Bolqon mamlakatlaridan ayniqsa ko'p, Rossiya, Xitoy va Yaponiyadan kamroq emmigrant ko'chib keldi. Keyingi davrda ko'chib kelgan bu emigrantlar odatda boshqalardan ajralgan holda yashab, o'z tili, urf – odatlari, madaniyati va dinini saqlab qolmoqda. Bular ba'zi bir mamlakatlarda (Braziliya, Argentina, Urugvayda) aholining kattagina guruhini tashkil qiladi.

Amerika tarixining o'ziga xos xususiyatlari va buning oqibati bo'lgan hozirgi aholining joylashishidagi notekislik va aholi o'rtacha zichligining nisbatan kamligi Janubiy Amerikada tabiiy sharoitning boshqa materikdagiga qaraganda ko'p saqlanganligiga sabab bo'ldi. Amazonka pasttekisligining katta qismi, Gviana tog'ligining markaziy qismi (Rorayma massivi) And tog'lari va Tinch okeani sohilining janubi-g'arbiy qismida deyarli butunlay aholi yo'q va bu yerlar amalda o'zlashtirilmagan. Amazonka o'rmonlarining boshqa xalqlar bilan deyarli aloqa qilmaydigan ayrim ko'chmanchi qabilalari tabiatga ta'sir ko'rsatishdan ko'ra unga ko'proq bog'liqdir. Biroq bunday rayonlar tobora qisqarib bormoqda. Foydali qazilmalar qazib chiqarish, yo'llar qurilishi, yangi yerlarni o'zlashtirish Janubiy Amerikada tobora materikning ichkarisiga kirib bormoqda. Keyingi yillarda Amazonka pasttekisligining g'arbida, Peru nam tropik o'rmonlarining eng xilvat

joylarida neft qazib chiqarila boshlandi. Hozir Braziliya hududida transamazonka avtomobil yo'li qurib bitkazildi, bu yo'l bo'ylab joylashgan yerlar yaqin yillarda o'zlashtirilishi kerak. La-Plata tekisligi Braziliya tog'ligining qirg'oq bo'yi qismlari, materikning chekka shimoli ancha ilgari o'zlashtirila boshlangan va ancha o'zgartirilgan. Yevropaliklar mustamlakachiligi boshlanmasdan oldin o'zlashtirilgan rayonlar Boliviya, Peru va boshqa mamlakatlardagi And tog'larining ichki qismlarida joylashgan. Qadimgi hindular sivilizastiyasi rivojlangan u yerlarda insonning ko'p asrlik faoliyati dengiz sathidan 3 - 4,5 ming metr balandlikdagi cho'l yassitog'liklarni, tog'lar yonbag'rini madaniy landshaftlarga aylantirgan.

Rasmiy nomlanishi	Argentina respublikasi
Mustaqillik sanasi	1816 yil 9 iyul (Ispaniya mustamlakasi)
Rasmiy tili	Ispan
Poytaxti	Buenos-Ayres
Yirik shaharlari	Buenos-Ayres, Kordova, Rosanio
Boshqaruv shakli	Prezidentlik respublikasi
Maydoni	2,78 mln km.kv. (dunyoda 8-o`rinda)
Aholi soni	38,4 mln kishi (dunyoda 32-o`rinda)
Zichligi	1 km.kv. ga 18,3 kishi
Pul birligi	Argentina pesosi (ARS kod 032)

Geografik joylashuvi. Argentina Respublikasi - Janubiy Amerikaning qit'asining janubi-sharqiy qismi, Olovli Yer orolining sharqiy qismini va unga yaqin bo'lgan Estados va h.k. orolarni egallab turadi. G'arbda — Chili; shimol va shimoli — sharqda — Boliviya, Paragvay, Braziliya va Urugvay bilan chegaradoshdir. Sharqdan Atlantika okeani suvlari yuvib turadi.

Mamlakatning eng yuqori nuqtasi — Serro Akonkagua (Janubiy Amerikadagi eng yuqori cho'qqisi hisoblanib, balandligi 6960 m tashkil etadi). Argentina iqlimi shimolda — subtropik, mamlakat markazida — nam tropik va janubda — mo'tadil bo'ladi. Argentinaning sharqida, vodiylar g'arbda esa, baland And tepaligi mavjud. Yoz fasli (yanvar)dagi o'rtacha harorat: $+28^{\circ}\text{C}$, markazda — taxminan: $+24^{\circ}\text{C}$ va janubda: $+10^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi. Qish (iyul) faslida: $+18^{\circ}\text{C}$, $+15^{\circ}\text{C}$ va $+1^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi. Qish faslida ayrim ichki hududlar qurg'oqchilikka uchraydi. And tepaliklarida ular turli xil bo'ladi. Argentinaning asosiy daryolari: Parana, Paragvay, Rio-Salado, Rio-Kolorado hisoblanadi. Foydali qazilma boyliklari qatoriga: qo'rgoshin, sink, olovo, mis, temir rudasi, neft va uran kiradi.

Ma'muriy taqsimlanishi. Argentina — 22 ga provinsiya, federal (poytaxt) okrug va Olovli Yer orolining milliy xududidan iborat federatsiya hisoblanadi.

Aholisi va dini. Aholining etnik tarkibi: argentaliklarning 85 % dan oshig'i yevropaliklardan (ispaniyaliklar italyanlar, portugaliyaliklar, nemislar, slavyanlar va Yevropa qit'asidan kirgan boshqa vakillar)dan kelib chiqqandir. Hindu xalqlari, aholining - 15 % ni tashkil etadi. Davlat tili - ispan tili. Dini: xristian-katoliklar — 92 %, protestantlar 2 %, iudaizmlar - 2 %.

Siyosiy tizim. Argentina — Prezident boshqaruvi shaklidagi federativ respublika hisoblanadi. Davlat va hukumat boshlig'i prezident. Ikki palatali Milliy Kongress (Senat va Deputatlar palatasi) — mamlakatning qonunchilik hokimiyatini tashkil etadi. Ijroiya hokimiyati — Prezident va Bosh vazir boshchiligidagi hukumat tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatda ko'ppartiyaviylik tizimi joriy etilgan. Argentina, Amerika davlatlari tashkiloti, BMT va uning ko'plab maxsuslashtirilgan tashkilotlari a'zosi hisoblanadi.

Iqtisodiyoti. Argentina — qishloq, xo'jaligi yuqori rivojlangan industrial-agrar mamlakat hisoblanadi. Qo'rg'oshin, stink, neft, tabiiy gaz, uran va boshqa rudalari qazib olish amalga oshirilmoqda. Oziq - ovqat avtomobil, matbaa, tekstil, teri — poyafzal, mashinasozlik va rangli metallurgiya, neftni qayta ishlash va neft-kimyo, transport mashinasozlik, qishloq xo'jalik mashinasozlik, elektrotexnika sanoati jadal suratlarda rivojlanib bormoqda.

Asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari bug'doy, jo'xori, arpa, sorgo, soya, shakarqamish va kungaboqar Baliqchlik rivojlangan. Argentinada turizm sohasi yaxshi rivojlangan. Eksport uchun: go'sht, jun, teri, bug'doy, o'simlik vino mahsulotlari yetkazib beriladi. Import orqali mashina va uskunalar, ximikatlar, metall buyumlar, yoqilg'i va qishloq xo'jalik buyumlari olib kiriladi. Asosiy savdo hamkorlari – AQSH, Braziliya, Germaniya, Boliviya, Yaponiya va Italiya.

BOLIVIYA

Rasmiy nomlanishi	Boliviya respublikasi
Mustaqillik sanasi bo'lgan)	1825 yil 6 avgust (Ispaniya mustamlakasi)
Rasmiy tili	Ispan, Aymara, Kechua va Guarani
Poytaxti	La-Pas, Sukre
Yirik shaharlari	La-Pas, Santa-Krus-de-la-Sierra,
Boshqaruv shakli	Unitar respublika
Maydoni	1,099 mln km.kv. (dunyoda 27-o'rinda)
Aholi soni	9 mln kishi (dunyoda 86-o'rinda)
Zichligi	1 km.kv. ga 8,2 kishi
Pul birligi	Boliviano (VOV kod 068)

Geografik joylashuvi. Boliviya respublikasi — Janubiy Amerikaning markaziy qismidagi davlat. Boliviya, shimol va shimoli – sharqda Braziliya; janubi-sharqda — Paragvay; janubda Argentina; janubi-g'arb va g'arbda esa — Chili va Peru bilan chegaradoshdir. Boliviya hududi shartli ravishda 3 ta geografik zonalarga bo'ladi. Eng baland Altiplano platosi mamlakatni shimoli-g'arbdan janubi-sharq tomon, And tepaliklarini G'arbiy (Vulqonli) va Sharqiy Kordilyeralar tizmasiga kesib o'tgan bo'lib, dengiz sathidan 3500-4000 m baland joyda joylashgan yerlari unumsiz hudud hisoblanadi. Bu yerda mamlakatning eng yuqori nuqtasi - Nevado-Saxoma (6542 m) tog'i joylashgan. Boliviyaning dengizga olib chiqadigan yo'llari umuman yo'q. Iqlimi adirlarda tropik va subekvatorial, tog'li hududlarda esa keskin-kontinental bo'ladi.

Boliviya'dagi havo-iqlim sharoitlar, dengiz sathidan baland turgan joylarga bog'liqdir. O'rtacha oylik haroratlar, yoz (dekabr oyidan fevral oyiga qadar) faslida tekis maydonlarda: +21° C dan +24° C gacha, Kordilyera etaklarida esa: +3°C gacha o'zgarib turadi. Qish (may oyidan avgust oyiga qadar) faslida o'rtacha harorat: +19° C dan — 10°C gacha tushishi mumkin. Ekvatorga yaqin joylashgani sabab yil fasllari uncha aniq, aks etmagan — yozgi va qishki fasllarda havo harorati adirlarda 10° C, tog'li hududlarda esa 30° C ni tashkil etadi. Yomg'irlar fasli oktabr-noyabr oyidan boshlab, mart oyiga qadar davom etadi. Boliviyaning asosiy daryolari: Beni, Mamore, Guapore va h.k., ko'llari esa Titikaka va Poopo hisoblanadi. And tepaliklari va Amazonka adirlarida xamisha yashil namli o'simliklar, tog'oldilarida esa cho'lli o'simliklar bilan qoplangandir. Milliy bog'lari: Isiboro-Sekure, Uanchaka, Pilon-Laxas va h.k. hisoblanadi.

Ma'muriy taqsimlanishi. Ma'muriy jihatdan mamlakat 9 departament, ular esa 98 ta provinstiyalar bo'lingan.

Aholisi va dini. Aholining etnik tarkibi: taxminan 25 % ni, ispaniyaliklar va hindu qabila vakillari qonidan kelib chiqqan boliviyaliklar tashkil etiladi. Aholining taxminan 15 % ni ispaniyaliklar, 2 % ni - Afrikadan chiqqanlar tashkil etadi. Mamlakat aholisining qolgan qismini — kechua (25 %), aymara (17-30 %) hindu qabilalari tashkil etadi. Rasmiy tili — ispan, aymara, kechua va guarani tillari hisoblanadi. Dini: xristian – katoliklar – 95 % va protestantlar.

Siyosiy tizim. 1967 yilda qabul qilingan va amalda bo'lgan Konstitutsiyaga muvofiq, Boliviya unitar demokratik davlat hisoblanadi. Ijroiya xokimiyati — prezident va davlat vazirlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat va hukumat boshlig'i - Prezident. qonunchilik hokimiyati — Ikki palatali Kongress (Senatorlar va Deputatlar palatasi) ga tegishli.

Sud tizimi o'z tarkibiga — Yuqori, okrug, mahalliy, va konstitutsion sudlarni kiritgan. Mamlakatda ko'ppartiyaviylik tizimi joriy etilgan. Boliviya — BMT, Amerika davlatlari tashkiloti Lotin Amerika integratsiyasi assotsiatsiyasi hamda Janubiy Amerika umumiy bozorining rasmiy a'zolaridan hisoblanadi.

Iqtisodiyoti. Tog'-kon va tabiiy gaz sanoati — Boliviya xo'jaligining asosini tashkil etadi. Boliviya — olova, surma, volfram qo'rgoshin, sink, neft, tabiiy gaz va boshqa rangli metallarni qazib olish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi. To'qimachilik, metallni qayta ishlash, oziq – ovqat sanoatlari, rangli metallurgiya va neft – kimyo korxonalari rivojlangan. Eksport uchun: tog'-kon xom – ashyosi, neft, tabiiy gaz, yog'och, zargarlik buyumlari, dukkaklar va soya yetkazib beriladi. Import orqali: transport uskunalari, sanoat xom-ashyosi, xalq iste'mol mollari olib kiriladi. Asosiy tashqi savdo hamkorlari: AQSh, Argentina va Buyuk Britaniya.

BRAZILIYA

Rasmiy nomlanishi	Braziliya Federativ respublikasi
Mustaqillik sanasi	1822 – yil 7 – sentyabrda e'lon qilingan 1825 – yil 29 – avgustda tan olingan
Rasmiy tili	Portugal
Poytaxti	Brazilia
Yirik shaharlari	San-Paulu, Rio-de-Janeyro, Belu-Orizonti, Fortaleza, Brazilia
Boshqaruv shakli	Federativ respublika
Maydoni	8,55 mln km.kv. (dunyoda 5-o'rinda)
Aholi soni	183,9 mln kishi (dunyoda 5-o'rinda)
Zichligi	1 km.kv. ga 21,5 kishi
Pul birligi	Braziliya reali (BRL kod986)

Geografik joylashuvi. Braziliya Respublikasi — Janubiy Amerikadagi aholisi eng ko'p va mamlakat maydoni katta davlatlardan biri hisoblanadi. Bu davlat qit'aning sharqiy va markaziy qismlarini egallab turadi. Braziliya – Fransuz Gvianasi, Surinam, Gayana, Venesuela, Kolumbiya, Peru, Boliviya, Paragvay, Argentina va Urugvay bilan chegaradoshdir. Sharqiy tomondan Atlantika suvlari yuvib, bu okeanda bir nechta orollarga egadir. Braziliyaning markaziy va janubiy

qismlarini Braziliya yassi tog'lar (mamlakatning eng yuqori nuqtasi — Bondeyra tog'i bo'lib 2890 m); shimoldan - Amazonka tekisligi joylashgan. Iqlimi shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa ekvatorialdan subtropika (o'rtacha harorat yanvar oyida: +23° C dan +29° C gacha, iyul oyida: +16° C dan +24° C gacha bo'ladi.) o'zgarib turadi.

Asosiy daryolari - Amazonka, San-Fransisku, Parana. Amazoniya tekisliklarida — nam ekvatorial o'rmonlar, markaziy qismda — savanna va oradagi chakalakzorlar, Atlantik bo'yi tekisliklarda — tropik o'rmonlar joylashgan. Braziliyaning tropik o'rmonlarida dunyodagi hayvonlar va qushlarning eng ko'p turlari mavjuddir.

Ma'muriy taqsimlanish. Braziliya ma'muriy jihatdan 26 shtatlar va 1 ta federal (poytaxt) okrugiga bo'linadi.

Aholisi va dini. Axolining 95 % ga yaqinini braziliyaliklar -- xindularning G'arbiy Yevropa mamlakatlari va Afrika qit'asidan chiqqanlar bilan qoni aralashgan vakillaridan iborat. Davlat tili — portugali tili hisoblanadi. Dini: aholining katta qismi taxminan 74 %, bugungi kungacha sinkretik va animistik dinlarga ibodat qiladilar.

Siyosiy tizim. Hozirgi kunda 1988 – yil qabul qilingan va 1994-1997 yillarda o'zgartirishlar kiritilgan Konstitutsiyaga amal qilinib kelinmoqda. Braziliya - Prezident boshqaruvi shaklidagi Federativ Respublika sanaladi. Davlat va hukumat boshlig'i — prezident. Ikki palatali Milliy Kongress (Senat va Deputatlar palatasi) — mamlakatning qonunchilik palatasini tashkil etadi. Ijroiya hokimiyatining yuqori organlari — Federat hukumat va Prezident mahkamasi sanaladi. Har bir shtat o'zining hukumati va qonunchilik assambleyasiga egadir. Muniststipal darajada ijroiya hokimiyati boshlig'i — prefekt hisoblanadi. Mamlakatda ko'ppartiyaviylik tizimi joriy etilgan. Braziliya — BMT, VTO, Amerika davlatlari tashkiloti, XVf kabi xalkaro tashkilotlarning a'zosi hisoblanadi.

Iqtisodiyoti. Braziliya – industrial – agrar mamlakat hisoblanib, Janubiy Amerikada iqtisodiy salohiyati jihatdan eng yirigidir. Mamlakatda: temir va marganets rudalari, rangli metallar, berilliy, tantal, boksit, neft, tosh ko'mir va h.k qazib olinadi. Qora va rangli metallurgiya (alyuminiy, mis va nikel quyish).

Mashinasozlik (avia va kemasozlik, qishloq xo'jalik, radioelektron va harbiy), neftni qayta ishlash, kimyo, neft-kimyo, sement, qog'oz, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatlari rivojlangan. Xo'jalikda o'stiriladigan asosiy mahsulotlar: qahva, shakarqamish, kakao, banan, soya, sizal, guruch, manioka (dunyoda birinchi o'rinda turadi), jo'xori va bug'doy hisoblanadi. Qoramolchilik, baliqchilik rivojlangan.

Eksport uchun: tayyor buyumlar va og'ir hamda yengil sanoat yarim fabrikatlar, avtomobillar, samolyotlar, elektron uskunalar, po'lat, qahva, temir rudasi, soya-dukkaklari, tamaki, shakar, go'sht, teri va jun yetkazib beriladi. Import orqali: mashina, dastgohlar va sanoat uskunolari, sanoat xom-ashyosi neft-ko'mir va rangli metallurgiya) va bug'doy olib kiriladi. asosiy tashqi savdo hamkorlari: AQSH, Yevropa ittifoqi mamlakatlari, Lotin Amerika davlatlari, Yaponiya va Kanada.

Rasmiy nomlanishi	Venesuela Bolivarian respublikasi
Mustaqillik sanasi	1811-yil 5 iyul (Ispaniya mustamlakasi bo'lgan)
Rasmiy tili	Ispan
Poytaxti	Karakas
Yirik shaharlari	Karakas, Marakaybo, Valensiya
Boshqaruv shakli	Unitar respublika
Maydoni	912 ming km.kv. (dunyoda 32-o`rinda)
Aholi soni	26,28 mln kishi (dunyoda 45-o`rinda)
Zichligi	28,8 km.kv. ga kishi
Pul birligi	Venesuela bolivari (UEV)

Geografik joylashuvi. Venesuela Bolivarian Respublikasi Janubiy Amerikaning shimoliy qismidagi janubda — Braziliya, g'arbda — Kolumbiya va sharqda — Gayana orasida joylashgan davlatdir. Shimolda - Atlantik okeanining Karib dengizi suvlari yuvib turadi. Aves, Orchila, Los-Armanos, Los-Testigos, Margarita, La-Tortuga, Los-Rokes va Blankilya kabi orollar hamda Karib dengizining janubiy qismidagi mayda marjonorollar (taxminan 72 ta) va riflari (taxminan 200 ta) Venesuelaga tegishlidir. Mamlakat hududining katta qismida ekvatorial iqlim hukm suradi. havo harorati yil bo'yi, o'zgarib $+21^{\circ}\text{C}$ $+26^{\circ}\text{C}$ gacha, Karkasda: $+18^{\circ}\text{C}$ dan $+20^{\circ}\text{C}$ gacha, Marakayboda esa: $+27^{\circ}\text{C}$ dan $+29^{\circ}\text{C}$ gacha o'zgarib turadi. Venesuela bir-biridan relyefi, iqlimi va o'simligi bo'yicha shartli ravishda 4 qismga bulib chiqish mumkin. And tepaliklarining tog' qismi chiziq bo'lib butun mamlakat bo'ylab mamlakatning shimoli-g'arbiy qismi bo'ylab tortilgan. And tepaliklirining bo'laklari Venesuelada yomg'irli o'rmonlar va qahva hamda kakao plantatsiyalari qoplangan vodiylar va adirlarini tashkil etadi.

Mamlakatning eng yuqori cho'qqisi bo'lgan, Serra – Nevada – de – Merida tog'lari deyarli butun yil davomida qor bilan qoplanib turadi. Apure va Orinoko (Janubiy Amerikadagi kattaligi bo'yicha uchinchi o'rinda turadigan daryolar) daryolari hovuzida yotgan Lyanos (Los-Lyanos) hududi, mamlakat hududining taxminan 30 % ni tashkil etadi. Mamlakatning janubi - sharqida — Venesuelaning qazilma boyliklarining eng asosiy zahirasi va eng faol turizm hududiga aylangan balandligi 2700 m bulgan Gvian yassi tog'i joylashgan.

Ma'muriy taqsimlanishi. Ma'muriy hududi jihatdan Venesuela 22 shtat, 1ta federal okrug (Karakas) va Karib dengizidagi 72 oroldan iborat federal hududlarga bo'linadi.

Aholisi va dini. Aholining etnik tarkibi: venesuelaliklar – 91 %, kolumbiyaliklar - 3 %, italiyaliklar - 2 %, ispanlar ~2 % va hindular — 2 % ni tashkil etadi. Davlat tili — ispan tili hisoblanadi. Dini: katoliklar — 95 % dan iborat.

Siyosiy tizim. Venesuela Bolivarian Respublikasi — Prezident boshqaruvi shaklidagi mustaqil federativ respublika sanaladi. Prezident qonunchilik tashabbusiga ega bo'lib mavjud bo'lgan qonunchilik tizimiga o'zgartirishlar taklif etadi, ammo takliflari parlamentdagi ko'pchilik ovozlari bilan rad qilishi mumkin. Ikki palatali Milliy Majlis - mamlakatning Qonunchilik organini tashkil etadi. Oliy Sud hokimiyati sanaladi. Venesuela - VTO, MBRR, XVF, MFKK, Amerika davlatlari tashkiloti, BMT va OPEK a'zolari qatorida turadi.

Iqtisodiyoti- Mamlakat iqtisodiyoning asosini — neft qazib chiqarish va Kimyo sanoati tashkil etadi. Qayta ishlash sanoati ayniqsa, mashinasozlik va metallurgiya sanoatlari mamlakatning iqtisodiyotiga qaraganda jadal sur`atlarda o'sib bormoqda. Mamlakatda traktor va qishloq xo'jaligi buyumlari, transport qurilish uskunalari, metallni qayta ishlash korxona va zavodlari mavjud. Qurilish mollari ishlab chiqarilishi o'sib bormoqda. Eksport uchun: neft va neft mahsulotlari, temir rudasi, qahva va kakao, oltin, asbest, shakar, banan, sabzavotlar, guruch, teri, qoramol va yog'och yetkazib beriladi. Import orqali turli xil uskunalalar, mashinalar, mexanizmlar, transport vositalari ularning ehtiyot qismlari, turli xil xom – ashyolar jumladan metall konstruksiyalar, iste'mol sanoat mollari va oziq – ovqatlar olib kiriladi. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Yevropa mamlakatlari, Braziliya, Yaponiya.

KOLUMBIYA

Rasmiy nomlanishi	Kolumbiya respublikasi
Mustaqillik sanasi	1810 yil 20 iyul (Ispaniya mustamlakasi bo'lgan)
Rasmiy tili	Ispan
Poytaxti	Saita-Fe-de-Bogota
Yirik shaxarlari	Bogota, Medelii, Kali, Barrankilya
Boshqaruv shakli	Parlament respublika
Maydoni	1,14 mln km.kv. (dunyoda 25-o`rinda)
Aholi soni	44,91 mln kishi (dunyoda 27-o`rinda)
Zichligi	1 km.kv. ga 39,3 kishi
Pul birligi	Kolumbiya issosi (SOR kod 170)

Geografik joylashuvi. Kolumbiya respublikasi — Janubiy Amerikaning shimoli-g'arbiy qismidagi davlat hisoblanadi. Sharqda - Braziliya va Venesuela, janubda Ekvador va Peru, g'arbda esa - Panama bilan chegaradosh hisoblanadi. Shimolda — Karib dengizi, g'arbda esa — Tinch okeani suvlari yuvib turadi. Kolumbiya Janubiy Amerikadagi, Tinch va Atlantika okeanlarga olib chiqadigan yo'li bor yagona davlat hisoblanadi. Mamlakatning g'arbiy qismida, shimoldan janub tomon, Magdalena va Kauka daryolari orqali uzilgan.

And tepaliklari cho'zilgandir. Serra – Nevada – de – Santa – Marta tog'ining balandiligi 5775 m bo'lib, Kristobal–Kolon uning cho'qqisi hisoblanadi. Kolumbiya relyefi mamlakatning turli hududlarida har xil. And tog'larida o'simlik balandlikka qarab belgilanadi. Mamlakat flora va fauna dunyosi judayam turli xil bo'ladi. Mamlakatning iqlimi ekvatorial va subekvatorial. Gargona, Gorgonilya, Malpelo, San – Andres, Tinch okeanining ko'pchilik mayda orollari va Nikaragua qirg'oqlaridan 750 km uzoqlikda joylashgan Karib dengizidagi Providensiya arxipelagi Kolumbiyaga tegishlidir.

Ma'muriy taqsimlanishi. Ma'muriy – hududiy jihatdan 32 ta departament va poytaxt okrugiga bo'linadi. Poytaxt Santa – Fe – de – Bogota.

Aholisi va dini. O'zlarini yagona millat deb hisoblaydigan kolumbiyaliklarning etnik tarkibi aslida turfa xildir: aholining taxminan 58 % -

metislar, 20 % ga yaqini — Yevropa qit'asidan chiqqanlar, 14 % — mulatlar, taxminan 4 % qoratanlilar va 1 % ga yaqini — hindulardan iborat. Davlat tili — ispan tili. Aholining 95% ga yaqini o'zlarini katoliklar konfessiyasiga mansub hisoblaydilar.

Siyosiy tizim. Kolumbiya Unitar respublikasi – Prezident boshqaruvi shaklidagi demokratik davlat hisoblanadi. 1991- yildagi Konstitutsiyaga muvofiq, mamlakatdagi qonunchilik hokimiyati — Milliy Kongress (Vakillar palatasi va Senat)ga tegishlidir. Sud hokimiyati — Yuqori sud, Davlat kengashi va quyi instanstiyalar sudlari tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatda ko'ppartiyaviylik tizimi joriy etilgan. Kolumbiya – BMT, Amerika davlatlari tashkiloti a'zosi hisoblanadi.

Iqtisodiyoti. Kolumbiya – agrar-industrial mamlakat hisoblanadi. Asosiy xo'jalik mahsulotlari: qahva, banan, paxta kakao, shakarqamish, tamaki, kartoshka, guruch va jo'xori qoramolchilik va baliqchilik rivojlangan. Mamlakatda: oltin, kumush, platina, zumrad, toshko'mir, neft, tabiiy gaz, mis, simob, qo'rg'oshin va marganets qazib olinadi. Mashinasozlik, qayta ishlash, poyafzal, kimyo va neft-kimyo, to'qimachilik va oziq - ovqat sanoati takomillashib bormoqda. Eksport uchun: qishloq xo'jalik mahsulotlari, kimyo mollari, gullar, qora metallurgiya mahsulotlari, neft mahsulotlari va zumrad toshlar yetkazib beriladi. Import orqali: dastgohlar, avtomobillar, temir, po'lat va bug'doy olib kiriladi. Asosiy tashqi savdo hamkorlari: AQSH, Germaniya, Yaponiya.

PARAGVAY

Rasmiy nomlanishi	Paragvay respublikasi
Mustaqillik sanasi	1811 yil 15 may (Ispaniya mustamlakasi bo'lgan)
Rasmiy tili	Ispan va Guarani
Poytaxti	Asunson
Yirik shaharlari	Asunson
Boshqaruv shakli	Prezident respublikasi
Maydoni	406,8 ming km.kv. (dunyoda 58-o'rinda)
Aholi soni	6,02 mln kishi (dunyoda 100-o'rinda)
Zichligi	1 km.kv. ga 14,8 kishi
Pul birligi	Guarani (PYG kod 600)

Geografik joylashishi. Paragvay Respublikasi — Janubiy Amerikadagi dengizga olib chiqadigan yo'llari bo'lmagan davlat hisoblanadi. Janub va janubi-g'arbda — Argentina, shimoli - g'arbda – Boliviya, sharq va shimoli-sharqda esa — Braziliya bilan chegaradosh. Mamlakat Paragvay daryosi bilan ikki qismga bo'lingandir. Daryoning g'arbiy qismida Chako viloyati joylashgan bo'lib, bu cho'lli hudud mamlakat maydonining taxminan 60% ni tashkil etadi. Yirik va quruq bo'lgan Chako viloyati — Janubiy Amerikaning asl tabiatni saqlab qolgan hududlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatning sharqida hosildor yerlar va subtropik o'rmonlar mavjuddir.

Asosiy daryolari – Paragvay va Parana. Paragvay iqlimi tropik bo'lib, sharqiy Paragvayda namli qishi (iyun – 29°C) quruq bo'ladi. Yanvar oyidagi

oʻrtacha harorat: —27° S — va sentabr iyul esa: -17° C, - 19° C ni tashkil etadi. May va sentabr oylarida janubning sovuq havo massalari kelishi natijasida qisqa muddatli sovuq havolar kuzatiladi. Togʻli hududlarda iqlim joylarning balandligiga qarab belgilanadi.

Maʼmuriy taqsimlanishi. Maʼmuriy – hududiy jihatdan mamlakat: 18 departament va poytaxt okrugiga boʻlinadi.

Aholisi va dini. Aholining 88 %, hindular va oqtanlilarning qoʻshilishidan kelib chiqarkan — metis xalqlari xisoblanadi. Asl hindular — 2 % ni, oqtanlilar — 9 %, 1 % esa afrikaliklar, yaponlar yoki koreyaliklar tashkil etadi. Davlat tili – Ispan va guarani tili hisoblanali. Dini: katoliklar- 97 %, mennonitlar — 3 % va boshqa konfessiyalar.

Siyosiy tizim. Paragvay respublikasi – mustaqil davlati hisoblanadi. Ijroiya hokimiyati — Prezidentga tegishlidir. Qonunchilik hokimiyati — Kongress (Senat va Vakillar palatasi) ga tegishlidir. Paragvaydagi Sud tizimi oʻz tarkibiga – Yuqori sud va birinchi instantsiya sudlari qarorlarini nazorat qiluvchi apellyatsion palatani oladi. Mamlakatda koʻppartiyaviylik tizimi joriy etilgan. Paragvay – BMT, Amerika davlatlari tashkiloti, hamda 1991 - yildan boshlab Argentina, Braziliya va Urugvay davlatlari bilan bir qatorda “MERKOSUR” tashkilotining asoschilari zalaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyoti. Paragvay, asosan, agrar mamlakat hisoblanadi. Qishloq xoʻjaligining asosiy sohasi — qoramolchilik hisoblanadi. Asosiy xoʻjalik mahsulotlari: paxta, tamaki, tunga yongʻogʻi, mate choyi, qahva va soya. Mamlakatda, asosan, qishloq xoʻjalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan shugʻullanuvchi mayda sanoat korxonalari mavjud. Asosiy sanoat tarmoqlari: oziq - ovqat, daraxtlarni qayta ishlash, toʻquvchilik, charm-poyabzal, kebrach ekstrakt ishlab chiqarish va sement sanoati. Eksport uchun paxta, soya, tunga moyi, goʻsht va goʻsht mahsulotlari, kebracho ekstrakti, oʻsimlik moyi va oʻrmon materiallar yetkazib beriladi. Import orqali: neft va neft mahsulotlari, turli ishlab chiqarish uskunalari, temir va poʻlat, oziq-ovqat va transport vositalari olib kiriladi. Asosiy tashqi savdo hamkorlari Braziliya, Argentina, Germaniya.

PERU

Rasmiy nomlanishi	Peru respublikasi
Mustaqillik sanasi	1821- yil 28- iyul (Ispaniya mustamlkasi boʻlgan)
Rasmiy tili	Ispan va Kechua
Poytaxti	Lima
Yirik shaharlari	Lima
Boshqaruv shakli	Prezident respublikasi
Maydoni	1,285 mln km.kv. (dunyoda 19oʻrinda)
Aholi soni	27,56 mln kishi (dunyoda 39-oʻrinda)
Zichligi	1 km.kv. ga 21,4 kishi
Pul birligi	Yangi sol (PEN kod 604)

Geografik joylashishi. Peru Respublikasi — Janubiy Amerikada joylashgan davlat boʻlib, shimoli-gʻarbda — Ekvador, shimolda – Kolumbiya, sharqda —

Braziliya, janubi-sharqda — Boliviya bilan chegaradosh. G'arbiy tomondan — Tinch okean sohillari yuvib turadi. G'arbda Tinch okeani sohillari bo'ylab qirg'oq (Kosta) vodiylari yoyilgan. Shimolda — And tog' tizmalari tepaligi va 6768 m keladigan — Uaskaran tog'lari bo'y cho'zadi. And tepaliklarining g'arbiy qism etaklarida ora-orada ko'chatlar va kaktuslar shimol va sharqda esa — yuqori tog' tropik o'rmonlari, janubi-sharqiy qismda esa — yarim cho'llar yoyilgandir. And etaklarining sharqiy qismi va Selva vodiylarida — hamisha yashil nam o'rmonlar yoyilgan. Mamlakatning janubiy qismida — 15 ga yaqin tinib turgan va amaldagi vulqonli tog'lar mavjud bo'lib, ulardan eng balandi — Misti vulqonli tog'i hisoblanadi (5822 m). 3500 m dan baland bo'lgan tog' etaklari quruq baland tog' dashtlari bilan, pastki qismlarida esa - g'arbiy etaklarda quruq tog' o'rmonlari, sharqiy qismida esa tropik o'rmonlarni tashkil etuvchi hamisha yashil ko'chatlar va daraxtlar bilan qoplangan.

Mamlakatda — mis, temir, stink, qo'rgoshin, kumush, oltin, simob, vismut, molibden, sera, surma va barit konlari topilgan. Peru hududidagi iqlim sharoitlari o'ta har xildir. Sohil bo'ylarida havo harorati yil bo'yi: $+16^{\circ}\text{C}$, $+25^{\circ}\text{C}$ da turadi. Tog'li hududlarda iqlim mo'tadil bo'lib, qish (iyun oyidan oktyabr oylariga qadar) faslida o'rtacha: $+4^{\circ}\text{C}$, $+6^{\circ}\text{C}$ ni, yoz oyida: $+16^{\circ}\text{C}$ dan $+17^{\circ}\text{C}$ gacha, vodiylarda: $+24^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi. 3500 m baland bo'lgan joylarda tog' iqlimi aniq namoyon bo'lgan "puna" zonalari boshlanib, havo harorati qish faslida: -0°C dan -7°C gacha, yoz faslida esa: $+3^{\circ}\text{C}$ dan -7°C buladi. Selvaning adirli hududlarida havo harorati, yozda: $+18^{\circ}\text{C}$ dan 27°C gacha, qish faslida: $+16^{\circ}\text{C}$ dan $+26^{\circ}\text{C}$ gacha bo'ladi.

Ma'muriy taqsimlanishi. Ma'muriy jihatdan mamlakat 24 departament va 1 ta departament huquqlariga ega konstitutsion Kalyao provintsiyasiga bo'linadi.

Aholisi va dini. Aholining etnik tarkibi: 45 % — kechua va aymara hindulari, 37 % — metislar, 15 % — yevropaliklar va taxminan 3 % — osiyoliklar hisoblanadi. Davlat tillari — ispan va kechua tili. Dini: katolistizm.

Siyosiy tizim. Peru — Prezidentlik respublikasi hisoblanadi. Davlat va hukumat boshliq — Prezident. Ijroiya hokimiyatini prezident va Bosh vazir amalga oshirishadi. Qonunchilik hokimiyati — Bir palatali Kongressga tegishli. Sud hokimiyati Yuqori sud va joylardagi o'zini - o'zi boshqarish hokimiyatlari tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatda ko'ppartiyaviylik tizimi joriy etilgan. Peru — BMT va uning maxsus tashkilotlari hamda Amerika davlatlari tashkiloti a'zosi hisoblanadi. Peru — Lotin Amerika integratsiyasi assotsiatsiyasi, And guruhi, Tinch okeani davlatlari iqtisodiy Kengashi, Lotin Amerikasidagi yadro qurolini ta'qiqlash kabi tashkilotlarning tarkibiga kiradi.

Iqtisodiyoti. Peru — tog'-kon va tobora takomillashib borayotgan qayta ishlash sanoati rivojlangan agrar-industrial mamlakat hisoblanadi. Xo'jalikda asosan: paxta, shakarqamish, qahva va kakao o'stiriladi. Yirik shoxli qora mol, muchka, qo'y, lama va alpak boqiladi. Baliqchilik va yog'ochni qayta ishlash muhim sohalardan biri hisoblanadi.

Tog'-kon sanoatining asosiy tarmoqlariga: stink rudasi, qo'rg'oshin, mis, temir rudasi, kumush, vismut, surma, molibden, volfram, simob, kadmiya, selen, tellura, oltin va neft kiradi. Neft, gaz va ko'mir sanoati mamlakat hayotida katta ahamiyatga ega. Qora va rangli metallurgiya, neftni qayta ishlash, kimyo va to'qimachilik sanoati rivojlangan.

Eksport uchun: tog' - kon va metallurgiya, neft va neft mahsulotlari, mis, stink, oltin, kumush, qo'rg'oshin, baliq uni, qahva, paxta va shakar yekazib beriladi. Import orqali: oziq - ovqat mahsulotlari, avalam bor bug'doy va guruch, sanoat uskunalari, ximikat va avtomobillar olib kiriladi. Asosiy tashqi savdo hamkorlari: AQSh, Yaponiya va Germaniya.

SURINAM

Rasmiy nomlanishi	Surinam respublikasi
Mustaqillik sanasi	1975- yil 25- noyabr (Nidsrlandiya tomonidan)
Rasmiy tili	Niderland
Poytaxti	Paramaribo
Yirik shaharlari	Paramaribo
Boshqaruv shakli	Parlament respublikasi
Maydoni	64.8 ming km.kv. (dunyoda 90-o`rinda)
Aholi soni	446.5ming kishi (dunyoda 170-o`rinda)
Zichligi	1 km.kv. ga 2,72 kishi
Pul birligi	Surinam dollari (SRD kod 968)

Geografik joylashishi. Surinam Respublikasi – Janubiy Amerikaning shimoli - sharqdagi davlat hisoblanadi. Mamlakat g'arbda — Gayana, sharqda - Fransuz Gvianasi va janubda — Braziliya bilan chegaradosh bo'lib, shimol tomondan — Atlantik okeani suvlari yuvib turadi. Shimolda Atlantika sohillari bo'yida, mamlakat aholisining katta qismi istiqomat qilib, hosildor yerlarda dehqonchilik bilan shug'ullanishadi. Mamlakatning janubida aholi deyarli yashamaydi, shuning uchun u hududlar savanna va tropik yomg'irli o'rmonlar bilan qoplangan.

Mamlakatning eng yuqori nuqtasi — Yulian (1230 m) tog'i hisoblanadi. Mamlakatni shimoliy yo'nalishda oqib turuvchi 4 ta yirik daryolar kesib o'tadi: Koranteyni, Koppename, Gran-Rio Surinam va Maroveyne. Mamlakatning shimoli-sharqida yirik suv ombori joylashgan. Mamlakat hududining — 90 % ga yaqinini hamisha yashil o'rmonlar egallaydi. Mamlakatning janubida subekvatorial o'rmonlar qoplangan Gvian tog'lari joylashgan. Surinam iqlimi — subekvatorial, qaynoq va muntazam namli. O'rtacha yillik harorat: +26° C ni tashkil etib butun yil davomida kam o'zgaradi. Yilning taxminan 200 kuni yomg'irli bo'lib bahor fasli odatda — aprel oyidan iyul oyiga qadar davom etadi.

Ma'muriy taqsimlanishi. Ma'muriy jihatdan mamlakat Prezidentning ma'muriy vakillari boshqaruvidagi 10 ta okrugga bo'linadi. Paramaribo — mamlakatning poytaxti va asosiy dengiz bandargohi sanaladi.

Aholisi va dini. Aholining etnik tarkibi: Surinam aholisining 37 % — hindular, 31 % Surinamda kreollar deb ataladigan qoratanli va mulatlar, 15,3 % — indoneziyaliklar; 10,3 % — arablar, 2,6 % — hindular, 1,7 % — xitoyliklar, 1 % yevropaliklar va 1,1 % qolgan etnos vakillari tashkil etadi. Rasmiy tili — Niderland tili hisoblanadi. Dini: protestantlar — 25,3 %, katoliklar — 22,8 %, induistlar - 27,6 % va musulmonlar — 19,6 % ni tashkil etadi. Qoratanlilar xristianlikning ozgina qonunlariga ega va ruhlarni chaqiruvchi hamda davolovchi

marosimlarni qo'llab kelishadi.

Siyosiy tizim. 1975- yili Surinam mustaqilligini qo'lga kiritdi. 1975- yildagi Konstitutsiyaga muvofiq mamlakat parlament respublikasi deya e'lon qilingan va sobiq general-gubernator rasman mamlakat prezident bo'lib qolgan, ammo amaldagi ijroiya hokimiyat, vazirlar mahkamasi qo'lga o'tib ketgan. 1980-yildagi harbiy to'ntarish natijasida, konstitutsiya huquqlari ta'qiqlandi. 1987-yilda qabul qilingan yangi Konstitutsiya umumxalq qonunchilik hokimiyati — Milliy assambleyani saylashni ko'zda tutgan, uni esa o'z navbatida Prezident (davlat boshlig'i) va Vazirlar Mahkamasini boshqarib kelayotgan visteprezident saylashadi. Prezident — Davlat Kengashini shakllantiradi. Surinamning sud tizimi o'z tarkibiga — Yuqori sud va 3 ta quyi sud instanstiylarini oladi. Mamlakatda ko'ppartiyaviylik tizimi joriy etilgan. Surinam — Amerika davlatlari tashkiloti, Karib Hamjamiyati, Amazoniya pakti, Yevropa iqtisodiy Ittifoqi a'zosi bo'lib, 1979- yildan boshlab — qo'shilmaslik harakati ishtirokchisidir.

Iqtisodiyoti. Boksitni qazib olish va alyumin ishlab chiqarishga asoslangan tog' - kon sanoati — mamlakat iqtisodiyotining asosini tashkil etadi. Sanoat Amerika va Gollandiya kompaniyalari tomonidan nazorat qilib boriladi. Neft, gaz, marganets, temir va nikel rudalari, oltin qazib olinadi. Qoramolchilik, baliqchilik dengiz va o'rmon mahsulotlarini qayta ishlash rivojlangan. Xo'jalikda asosan: guruch, shakarqamish, jo'xori, qahva, kakao, choy, banan va sitrus mevalar o'stiriladi. Eksport uchun: boksit, alyumin, guruch va yog'och yetkazib beriladi. Import orqali: xom-ashyo, sanoat mollari, mashina va uskunalar, oziq - ovqat mahsulotlari olib kiriladi. Asosiy savdo hamkorlari: AQSh, Niderlandiya va Yevropa mamlakatlari.

URUGVAY

Rasmiy nomlanishi	Sharqiy Urugvay respublikasi
Mustaqillik sanasi	1825 - yil 25- avgust (Braziliya mustamlakasi bo'lgan)
Rasmiy tili	Ispan
Poytaxti	Montevideo
Yirik shaharlari	Montevideo
Boshqaruv shakli	Parlament respublikasi
Maydoni	176.2 ming km.kv. (dunyoda 88-uriida)
Aholi soni	3,44 mln kishi (dunyoda 130-urinda)
Zichligi	1 km.kv. ga 19,5 kishi
Pul birligi	Urugvay pesosi (UYU kod 858)

Geografik joylashuvi. Sharqiy Urugvay Respublikasi — Janubiy Amerikaning janubi-sharqiy qismida joylashgan, Atlantika okeani sohillaridagi davlat hisoblanadi. Shimolda — Braziliya, g'arbda — Argentina bilan chegaradosh bo'lib; sharq va janubda Atlantika okeani suvlari yuvib turadi. Urugvay janubi-g'arb tomon tushib borgan Braziliyaning janubiy tog' hududlarini egallab turadi. Mamlakat hududining katta qismi tepaliklardan iborat bo'lib, uncha katta bo'lmagan tog' tizmalari kesib o'tadi. Kuchilya-Grande va Kuchilya-Aedo tepaliklari o'rtasida Rio- Negro daryosi joylashgan. Urugvay iqlimi subtropik okean bo'lib, ichki hududlarida kontinentalga yaqindir. Iyul (qish) oyidagi o'rtacha

harorat: +10° C, +12° C ni, yanvar (yoz fasli) oyidagi o'rtacha harorat: +22° C +24° C ni tashkil etadi. Yiliga bir necha marotaba, ayniqsa yoz oylarida uraganlar bostirib keladi.

Ma'muriy taqsimlanishi. Hozirgi Urugvay aholisining 88 % asosan ispaniyaliklar va italiyaliklar avlodlari bo'lgan yevropaliklarni tashkil etadi. Faqatgina 8 % - metislar hisoblanadi. Urugvayda rasmiy din yuk. Aholining taxminan — 66 % katoliklardir. Rasmiy tili - ispan tili.

Siyosiy tizim. Urugvay — Prezident boshqaruvi shaklidagi demokratik respublika hisoblanadi. Urugvayning amaldagi Konstitutsiyasi 1966 - yilda referendum o'tkazilishi orqali qabul qilingan. Prezident — Hukumat va ma'muriyatning faoliyatiga javob beruvchi Vazirlar Mahkamasini tayinlaydi. Mamlakatdagi Qonunchilik hokimiyati — ikki palatali Bosh assambleyaga tegishli. Sud hokimiyati – Yuqori sudga tegishli. Urugvay — BMT, Amerika davlatlari tashkiloti, Amerika taraqqiyot banki va Lotin Amerika Integratsiya assotatsiyasi a'zosi hisoblanadi. Urugvay hududidagi siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni oshirishda katta rol o'ynaydigan Rio-de-Janeyro guruhi a'zosi hisoblanadi.

Iqtisodiyoti. Urugvay — eksport yo'nalishidagi qoramolchilik sohasi keng rivojlangan industrial - agrar mamlakat hisoblanadi. Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmoqlariga — qoramolchilik kiradi, baliqchilik rivojlangan. Asosiy xo'jalik mahsulotlari: bug'doy, guruch, shakarqamish, jo'xori, kungaboqar va yemlar hisoblanadi. Uzumchilik va sitrus mevalari, o'rmon mahsulotlarini qayta ishlash rivojlangan. Mamlakatda yirik oziq - ovqat (go'sht, vino va konserva korxonalari), to'quvchilik va charm - poyafzal, neftni qayta ishlash, kimyo, metallurgiya, elektrotexnika va avtoyig'uv sanoati korxonalari mavjud. Eksport uchun: to'quvchilik, go'sht va go'sht mahsulotlari, jun, teri va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari yetkazib beriladi. Import orqali: mashina va uskunalar, mineral xom-ashyo (asosan), oziq-ovqat mahsulotlari va ba'zi sanoat mollari olib kiriladi. Asosiy tashqi savdo hamkorlari: Braziliya, Argentina, AQSh, Germaniya va Italiya.

FOLKLEND (MALVIN) OROLLARI

Rasmiy nomlanishi	Folklen (Malvin) orollari
Qaram davlat	Buyuk Britaniyaga tegishli hududlar
Rasmiy tili	Ingliz
Poytaxti	Port-Stenli
Maydoni	12,2 ming km.kv.
Aholi soni	2,7 ming kishi
Zichligi	1 km.kv. ga 0,2 kishi
Pul birligi	Folkland orashari fushi (FKP kod 238)

Geografik joylashuvi. Folkland (Malvin) orollari – Atlantika okeanining janubi - g'arbiy qismidagi arxipelagi hisoblanib, ikki yirik (G'arbiy va Sharqiy Folkland) va taxminan 200 ga yaqin mayda orollar va qoyatoshlardan iborat. Iqlimi okeanik salqin bo'lib (o'rtacha oylik harorat: +2,5° C dan + 10° C gacha) va kuchli shamol hamda tumanlar bilan keladigan mo'tadil namli bo'ladi. Orollda dengiz qushlarining turlari judayam ko'p. Arxipelag, kuchli sovuq oqimlarning ta'siri os-

tida bo'lgan Dunyo okeanining zoogeografik Patagon (Maggellan) hududiga kiradi. Ulardan biri Folklend (Malvin) bo'lib, Folklend orollaridan La-Plata ko'rfaziga qadar davom etadi. Oqim tezligi — 1-2 km/s. Suvning o'rtacha harorati, qish faslida: 4° C dan 10° C ga qadar, yozda esa: 8° C dan 15° C ga qadar bo'ladi.

Ma'muriy taqsimlanishi. Ma'muriy - hududiy jihatdan bo'linishlarga ega emas. Ma'muriy markazi — Port - Stenli (Stenli) hisoblanadi.

Aholisi va dini. Arxipelag aholisi, asosan, inglizlar va Chili aholisidan iborat. Rasmiy tili: ingliz tili. Dini: anglikan talqinidagi xristianlik hisoblanadi.

Siyosiy tizim. Davlat tuzilishi — konstitutsion monarxiya. Davlat boshlig'i — Britaniya monarxi bo'lib, metropoliya tashqi siyosat va mudofaa masalalarini hal etadi. Hukumat boshlig'i — gubernator. Qolgan barcha masalalar Folklend orollari Kengashi tomonidan hal qilinadi. Qonunchilik hokimiyati 10 ta deputatlardan tashkil topgan. **Siyosiy partiya:** Folklend orollari Progressiv milliy partiyasi hisoblanadi.

Iqtisodiyoti. Araxipelag iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari – baliqchilik, turizm va qo'ychuvonlik hisoblanadi. Orollar shelfidagi yirik neft zahiralari topish uchun izlanishlar olib borilmoqda. Orollda yirik shoxli qoramol va otlarni boqib ko'paytirishadi. Eko turizm sohasi rivojlanib kelmoqda. Eksport uchun: qo'y yungi, teri, baliq va go'sht yetkazib beriladi. Import orqali: iste'mol mollari, mashina va transport uskunalar, yoqilg'i va oziq - ovqat mahsulotlari olib kiriladi. Asosiy savdo hamkorlari: Buyuk Britaniya va Argentina.

FRANSIYA GVIANA

Rasmiy nomlanishi	Fransiya Gvianasi
Qaram davlat	Fransiyaning dengizorti departamenti
Rasmiy tili	Fransuz
Poytaxti	Kayenna
Yirik shaharlari	Kayenna
Maydoni	91 ming km.kv
Aholi soni	194 ming kishi
Zichligi	1 km.kv. ga 2,1 kishi
Pul birligi	Yevro (EUR kod 978)

Geografik joylashishi. Fransiya Gvianasi — Fransiyaning eng yirik dengiz orti departamenti bo'lib, Janubiy Amerikaning shimoli-shaqiy qismida, Antlantika sohillaridan deyarli ekvatorga yaqin bo'lgan joyda joylashgan. Rasmiy nomi - Gviana, “Fransuz” qo'shimchasi esa, Gviana nomi bilan 3 ta mustamlakalar nomidan olingan: Britaniya (hozirgi Gayana), Niderland (hozirgi Surinam) va fransuz mustamlakalari - mamlakat hududining taxminan 90% i odam kam yashaydigan vatorial o'rmonlar bilan qoplangan.

Mamlakatning eng yuqori nuqtasi, Venesuela chegarasida joylashgan — Rorayma (2810 m) tog'i hisoblanadi. Iqlimi subekvatorial namli bo'ladi. O'rtacha oylik harorat: +25° C dan +28° C gacha o'zgarib turadi.

Ma'muriy taqsimlanishi. Ma'muriy - hududiy taqsimlanishlar yo`q. Ma'muriy markazi va asosiy dengiz bandargohi — Kayenna hisoblanadi.

Axolisi va dini. Aholi: kreollar — 70% dan oshiq, yevropaliklar (asosan fransuzlar) — 10 %, hindistonliklar — 8 %, braziliyaliklar — 8 %, qoratanli

(maron) lar va hindular — 4 % dan iboratdir. Rasmiy tili - Fransuz tili. Dini: katoliklar - 48 %, protestantlari - 15 %, yahudiylar va musulmonlar - 4,5 % ni tashkil etadi.

Siyosiy tizim. Fransuz Gvianasi – 1604 - yildan boshlab Fransiya mustamlakasi sanaladi. 1946 - yilda dengiz orti departamenti maqomiga ega bo'ldi. Orol Fransiya Respublikasi tomonidan tayinlangan prefekt tomonidan tayinlangan. Bosh va hududiy Kengashlar o'z - o'zini boshqarish mahalliy hokimiyatlari sanaladi.

Iqtisodiyoti. Gviana – agrar mamlakat hisoblanadi. Asosiy xo'jalik mahsulotlari: shakarqamish, guruch va banan hisoblanadi, shuningdek jo'xori, kakao, soya, batat va sitrus mevalar o'stiriladi. Baliqchilik va qimmatbaho daraxt turlarini qayta ishlash iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. Gviana yerlari boksit va oltin kabi mineral resurslarga boydir, ammo ularni qazib olish keng miqyosda olib borilmaydi. Kuru hududida — Fransiyaning kosmik izlanishlar bo'yicha Milliy Markazi, kosmodrom joylashgandi. Eksport uchun: yog'och mahsulotlari, baliqlar, qisqichbaqalar, rom va boksit yetkazib beriladi. Import orqali: oziq-ovqat mahsulotlar, sanoat mollari yoqilg'i va uskunalar olib kiriladi. Asosiy savdo hamkorlari: Fransiya, Germaniya va Niderlandiya.

CHILI

Rasmiy nomlanishi	Chili respublikasi
Mustaqillik sanasi	1810 - yil 18 - sentabr (Ispaniya mustamlakasi bo'lgan)
Rasmiy tili	Ispan
Poytaxti	Sant-yago
Yirik shaharlari	Sant-yago
Boshqaruv shakli	Parlament respublikasi
Maydoni	756.6 ming km.kv. (dunyoda 37-urinda)
Aholi soni	16,124 mln kishi (dunyoda 60-urinda)
Zichligi	1 km.kv. ga 21,3 kishi
Pul birligi	Chili pesosi (CLP kod152)

Geografik joylashuvi. Chili Respublikasi – Janubiy Amerikaning janubi-g'arbiy qismida joylashgan davlat bo'lib, Tinch okeani va And tepaliklari o'rtasidagi yerlarning uzun chizig'ini egallab turadi. G'arbda — Tinch okeani suvlari yuvib turadi, sharqda — Argentina, shimolda — Peru, shimoli - sharqda esa — Boliviya bilan chegaradosh. Mamlakat tarkibiga Pasxa, Xuan-Fernandes orollari, keng arxipelag va mamlakatning janubiy qismidagi Olovli Yer orolining bir qismi hamda ko'plab mayda orollar kiradi.

Ma'muriy taqsimlanishi. Ma'muriy jihatdan mamlakat 13 hududlarga, ular esa o'z navbatida 50 ta provintsiyalarga bo'linadi. Mamlakat poytaxti — Sant-yago shahri hisoblanadi.

Aholisi va dini. Aholining etnik tarkibi: chililiklar bo'lib, shulardan 70 % - metislar, 25 % - yevropaliklar va taxminan 5 % - hindular. Pasxa orolida Polineziyaliklar istiqomat qilishadi. Rasmiy tili: ispan tili. Dini: katoliklar - 80%, pro-

testantlar — 13% hamda boshqa konfessiya vakillari bo'ladi. Chilida cherkov davlatdan ajratilgan, ammo mamlakatning siyosiy hamda ijtimoiy hayotida katta hurmat va ahamiyatga ega.

Siyosiy tizim. Davlat boshlig'i — Prezident. Hukumat — Vazirlar Mahkamasi. Oliy qonunchilik hokimiyati – ikki palatali Milliy Kongressdir (Senat va Deputatlar palatasi). Amaldagi Konstitutsiya 1980 - yil qabul qilingan (1981-yil kuchga kirgan, 1990 - yilda esa to'laqonli amal qilgan). Mamlakatda ko'ppartiya - viylik tizimi joriy etilgan. Chili – BMT, Amerika davlatlari tashkiloti va Amerika - aro taraqqiyot banki va Lotin Amerika integratsiya assotsiatsiyasi a'zosi hisoblanadi. Santyagoda BMT ning Lotin Amerikaning “EKLAK” tashkiloti uchun iqtisodiy komissiya bosh qarorgohi joylashgan.

Iqtisodiyoti. Chili iqtisodiyoti rivojlangan — industrial - agrar mamlakat hisoblanadi. Bu yerda: mis, tabiiy selitra, molibden, temir rudasi, oltin, kumush, stink, neft, tabiiy gaz hamda toshko'mir qazib olinadi. Oziq-ovqat va yengil sanoat, qora va rangli metallurgiya, kimyo, neftni qayta ishlash, maishiy va neft-kimyo, stellyuloz-kog'oz sanoati hamda boshqa sohalar keng rivojlangan. qishlok xo'jaligining asosini — o'simlikshunoslik, urug'chilik va uzumchilik: yog', shakar, lavlagi, nasha va tamaki hisoblanadi. Chili yirik zamonaviy va qudratli baliqchilik sanoatiga egadir. Chilida shuningdek — dengiz o'tlari olinadi, ulardan mahalliy sanoat ehtiyojlariga sarflanadi. Eksport uchun: o'rmon mahsulotlari va lavr, mis, po'lat, turli xil yoqilg'ilar, sement, to'quvchilik, radioelektronika, muzlatgichlar, oziq-ovqat mahsulotlari, sanoat uskunalari, kimyo materiallari va dengiz mahsulotlari, stellyuloz massasi, temir rudasi, selitra, mevalar, sabzavotlar, vino va baliq uni yetkazib beriladi. Import orqali: neft mahsulotlari, sanoat uskunalari, transport vositalari, bug'doy va kimyo vositalari olib kiriladi. Asosiy savdo hamkorlari: AQSh, Braziliya, Yaponiya va G'arbiy Germaniya.

EKVADOR

Rasmiy nomlanishi	Ekvador Respublikasi
Mustaqillik sanasi	1822- yil 24- may (Ispaniya mustamlakasi bo'lgan)
Rasmiy tili	Ispan
Poytaxti	Kito
Yirik shaharlari	Kito, Guayakil
Boshqaruv shakli	Prezidentlik respublikasi
Maydoni	272 ming km.kv. (dunyoda 71 – o'rinda)
Aholi soni	13,04 mln kishi (dunyoda 65 – o'rinda)
Zichligi	1 km.kv. ga 47,9 kishi
Pul birligi	AQSh dollari (USD) kod 840)

Geografik joylashuvi. Ekvador Respublikasi – Janubiy Amerikaning shimoli-g'arbida joylashgan davlat hisoblanadi. G'arbda Tinch okeani suvlari yuvib turadi; shimolda – Kolumbiya, sharq va janubda — Peru bilan chegaradoshdir. Ekvador tarkibiga — Galapagos orollari kiradi. Mamlakatni - ekvator chizig'i kesib turadi. Mamlakatning g'arbi, Tinch okeani sohillari bo'yida adirlar va And tog'oldi hududlari cho'zilgan bo'lib, mamlakatning markazida ikki yonma-yon tog' tizmalari — G'arbiy va Sharqiy Kordileri tog' tizmalaridan tashkil topgan

And tepaliklari joylashgan.

Ma'muriy taqsimlanishi. Ma'muriy - hududiy jihatdan mamlakat: Gala - pagoss orollarini qo'shganda 21 ta provintsiyalarga bo'linadi.

Aholisi va dini. Mamlakat aholisi asosan, kechua-hindulari (40 %) va metislardan iboratdir. Davlat tili – Ispan tili hisoblanadi. Dindorlarning ko'p - chiligi – katoliklar bo'lib (95 %) boshqa dunyo dinlari konfessiyalari ham mavjud.

Siyosiy tuzum. 1998 - yildagi Konstitutsiyaga muvofiq, Ekvador mustaqil davlat. Prezident respublikasiga aylantiriladi. Davlat va hukumat boshlig'i - Prezident. Prezidentdan tashqari hokimiyatni Vazirlik darajasidagi bir qator boshqarmalar va Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Bir palatali Milliy Kongress — mamlakatning qonunchilik hokimiyatini tashkil etadi. Sud hokimiyati, sudlarning quyidagi uch daraja tizimidan iboratdir: jinoyat va fukarolik ishlari bo'yicha birinchi instantiya sudlari va provinsiyalarning yuqori sudlari va yuqori suddan iboratdir. Mamlakatda ko'ppartiyaviylik tizimi joriy etilgan.

Ekvador — BMT, Amerika davlatlari tashkiloti, Lotin Amerika integratsiya assotsiatsiyasi va And pakti, Rio guruhi, Lotin Amerika iqtisodiy tizimi, Lotin Amerika energetika assotsiatsiyasi a'zolari bo'lib, Neftni eksport qiluvchi — mamlakatlar tashkilotining assopiatsiyalangan a'zosi maqomiga ega.

Iqtisodiyoti. Ekvador — yirik neft sanoatiga ega industrial-agrar mamlakat hisoblanadi. Asosiy xo'jalik mahsulotlari: banan, qahva, kakao va paxta, jo'xori, shakar-qamish, bug'doy, soya, guruch, kartoshka va ba'zi sabzavotlar. Yirik shoxli qoramol va qo'y-qo'zi boqib ko'paytiriladi. Qirg'oqdarda — tunets, qisqichbaqa va langustlar tutiladi. Yog'och ishlab chiqarish sanoati takomillashmoqda.

Mamlakatda: neft, tabiiy gaz, mis va qo'rgoshin rudalari, oltin, kumush va sera qazib olinadi. Po'lat quyish, neft - kimyo va sement sanoati rivojlangan. Eksport uchun: neft va neft mahsulotlari, banan, kakao, baliq va dengiz mahsulotlari, yetkazib beriladi. Import orqali: dastgohlar, avtomobillar va kimyo mollari olib kiriladi. Asosiy tashqi savdo hamkorlari: AQSh, Yevropa mamlakatlari va Lotin Amerika, Yaponiya hisoblanadi.

1. Janubiy Amerikaning maydoni	17 834 000 kv km
2. Orollarining maydoni	150 000 kv km
3. Qirg'oq chiziqlarining uzunligi	26000 km
4. Dengiz sathidan o'rtacha balandligi	580 m
5. Eng baland nuqtasi Akonkagua cho'qqisi	6980 m
6. Eng past nuqtasi Valdes ya.o. sathi	- 40m
7. Shimoliy chekka nuqtasi Galinas b.	12° 25' sh.k. 71° 35' g'b.u.
8. Janubiy chekka nuqtasi Frouard b.	53° 54' j. k. 71° 18' g'b.u.
9. Sharqiy chekka nuqtasi Kabu-Branku b.	7° 09' j.k. 34° 46' g'b.u.
10. G'arbiy chekka nuqtasi Parinyas b.	4° 45' j.k. 81° 20' g'b.u.

Asosiy xususiyatlari

1. Dunyodagi eng baland sharshara Anxel shu materikda.
2. Eng sersuv va havza maydoni eng katta daryo Amazonka bor.
3. Dunyodagi eng katta ilon anakonda shu yerda.
4. Dunyodagi eng mitti yirtqich "odamxo'r" piranya balig'i bor.
5. Eng uzun tog'i va eng balandda chuchuk suvli Titikaka ko'li (3810 m) .
6. Eng baland harakatdagi Lyulyavlyako (6723 m) vulqoni mavjud.
7. Eng sernam materik.
8. Eng qalin o'rmoni bor va u "sayyoramiz o'pkasi" deyiladi.
9. Janubiy Amerikaning janubiy chekkasidagi Olovli Yer arxepelagining janubiy va g'arbiy qismi tog'lik bo'lib, eng baland joyi 2469 m.
11. Janubiy Amerikadagi hindu tillarining eng yirik oilalaridan biri Tupi - guarani tillari bo'lib, so'zlashuvchilarning umumiy soni 4 mln ga yaqin.
12. Materikda hozirgi zamondagi eng yirik kemeruvchi suv cho'chqasi kapibara yashaydi.
13. Dunyodagi eng katta stadion (Marakano) Janubiy Amerika materigida qad ko'targan.

Materik tabiatini o'rgangan olim va sayyohatchilar:

1. Xristofor Kolumb 1492 - yil 12 - oktyabr Amerikani kashf etdi.
2. Amerigo Vespucci 1499-1504 - yillar materikni o'rgandi.
3. G.I. Lansdorf, N.G. Rubstov, A.I. Voyeykov, N.I. Vavilov.
4. A. Gumboldt va E. Bonplan.

Daryolari

T.R.	Nomi	Uzunligi (km)	Havzasining maydoni(ming kv.km)
1.	Amazonka (Marann bilan)	6437	7180
2.	Amazonka (Ukayali bilan)	6280	6915
3.	La-Plata (Parana bilan)	4700	3100
4.	San-Fransisku	2896	600
5.	Tokantins	2850	770
6.	Orinoko	2740	1000
7.	Urugvay	1609	306
8.	Magdalena	1550	260
9.	Jurua	728	314
10.	Purus	261	211
11.	Madeyra	314	187
12.	Mamore	211	139
13.	Guapore	187	322
14.	Tanajos	139	197
15.	Shingu	322	210
16.	Isa (Putumayo)	197	221
17.	Japura (Kaketa)	187	321
18.	Riu-Negru	192	334
19.	Riu-Braku	188	121
20.	Karoni(Anxel sharshara)	210	98
21 .	Meta	221	121
22.	Apure	321	114
23.	Kauka	167	314
24.	Atrato	301	211
25.	Parnaiba	198	166
26.	Riu-Grandi	341	134
27.	Paraniba	211	541
28.	Iguasu(Iguasu sharshara)	321	301
29.	Paragvay	225	198
30.	Pilkomayo	176	341
31.	Rio-Solado	189	211
32.	Rio-Kolorado	201	168
33.	Chubut	120	114
34.	Desaguaero(Titikaka)	108	097

Ko'llari

T.R.	Nomi	Maydoni (kv km)	Eng chuqur joyi (m.)
1.	Marakaybo	13300	250
2.	Titikaka	8300	304
3.	Poopo	2530	3
4.	Buenos-Ayres	1340	180
5.	Patus	1024	50
6.	Vedma	880	54
7.	Lago-Argentino	350	21
8.	Lagoa-Mirin	280	14

Orollari

T.R.	Nomi	Maydoni (km kv)
1.	Olovli Yer	48000
2.	Foklend	11960
3.	Chiloe	8400
4.	Galapagos	7430
5.	Trinidad	4820
6.	Kyurasao	447
7.	Tobago	300
8.	Shamolsiz orollar	280
9.	Mirajo	264
10.	Janubiy Georgiya	230
11.	Janubiy Sendvich	200
12.	Vellington	180
13.	Chonos arxipelagi	180
14.	Xuan-Fernandes	136

Baland cho'qqilari

T.R.	Nomi	Tog` sistemasi (mamlakat)	Dengiz sathidan balandligi (m)
1.	Akongauga	Argentina	6960
2.	Ilimani	Boliviya	6882
3.	Oxes-del Salado	Argentina-Chili	6880
4.	Tulungato	Argentina-Chili	6800
5.	Uaskaran	Peru	6768
6.	Ilyampu	Boliviya	6485
7.	Koropuna	Peru	6425
8.	Chimboraso	Ekvador	6267
9.	Kristobal-Kolon	Kolumbiya	5800
10.	Bolivar	Venesuela	5007
11.	San-Valentin	Chili	4058

12	Bandeyra	Braziliya	2890
13	Rorayma	Gviana	2810
14.	Agulyas-Negras	Braziliya	2787

Vulqonlari

T.R.	Nomi	Tog` sistemasi	Dengiz sathidan balandligi (m)
1.	Lyulyaylyako	Argentina-Chili	6723
2.	San-Pedro	Chili	6154
3.	Chachani	Peru	6075
4.	Kotopaxi	Ekvador	5896
5.	Ruis	Klumbiya	5400
6.	Osorno	Chili	2960
7.	Misti	Chili	5821
8.	Sangay	Peru	5230

Sharsharalari

№	Nomi	Daryoning nomi	Balandligi metr
1.	Anxel	Churun	1054
2.	Iguasú	Parana	72
3.	Kukenan	Kukenan	610
4.	Rorayma	Potaro	457
5.	Kayetur	Potaro	225
6.	Takendama	Bogota	137
7.	Paulu-Afonso	San-Fransisko	84

Qo'ltiqlari, buxtalari

- 1.Daren
- 2.Venesuela
3. San-Xorxe
- 4.La-Plata estuariysi
- 5.El-Rinkon
6. San-Matias

7. Baya-Grande
- 8.Penyas
- 9.Korkovado
- 10.Arika
- 11.Guyakil
- 12.Buenaventura

Burunlari, yarim orollari

- 1.Galinas
- 2.Kabu-Branku
- 3.Frouerd
4. Gorn

- 5.Parinyas
- 6.Guaxira
- 7.Tantao

Pasttekislik, tekislik va platolari

- | | |
|----------------------|----------------------|
| 1. Amazonka (Selvas) | 5.Gran-Chako |
| 2. Orinoko (Lyanos) | 6.Pampa |
| 3. Gviana | 7.Patagoniya platosi |
| 4. La-Plata | |

Cho'llari

1. Atakama

Iqlim mintaqalari

- 1.Ekvatorial
- 2.Jan. subekvatorial
3. Jan. tropik
4. Jan. subtropik
- 5.Mo'tadil

Tabiat zonalari

Ekvatorial o'rmonlar

Tuprog'i	O'simliklari	Hayvonot olami
	geveya(kauchuk),	tapir,maymun,yalqov
	palmar,kakao,	karibarlar,anakonda
	seyba,bals,qovun	iloni, piranya balig'i,
qizil-ferralit	daraxtlari,liana,	kolibri,shaftolixo'r,
	sedrella daraxti,	turli xil to'tilar,
		kaymanlar
	Braziliya yong'og'i	yirik kapalaklar
		yaguar,qo'ng'izlar

Subekvatorial o'rmonlar

Tuprog'i	O'simliklari	Hayvonot olami
	geveya(kauchuk),	tapir,maymun,yalqov
qizil-ferralit	xin ,bambuk	turli xil to'tilar
	daraxtlari,liana,	yirik kapalaklar
	o't o'simliklar	yaguar,qo'ng'izlar

Savannalar

Tuprog`i	O`simliklari	Hayvonot olami
	palma va akatsiya,	
	ko`p yillik o`tlar,	Pekar(yovvoyi cho`chqa)
Qizil-qo`ng`ir	o`simliklar,	Chumolixo`r, nandu
	Paragvay choyi,	Tuyaqush, zirhlilar,
	araukariyalar	kemiruvchilar

Dasht (Pampa)

Tuprog`i	O`simliklari	Hayvonot olami
dasht	chalov,betaga,yov-	lamalar,tuyaqushlar,
qizil-ferralit	voyi tariq va	pampa bug`usi
	boshqoli ekinlar	pampa mushugi
		kemiruvchilar

Cho`l va chalacho`llar(Patagoniya)

Tuprog`i	O`simliklari	Hayvonot olami
	tikanli butalar	kemiruvchilar
bo`z	g`alla o`simlik	nutriya
		mayda zirxlilar

Janubiy Amerika qo`riqxonasi va milliy bog`lari

- | | |
|--|--|
| 1.Kanayama m.b.
2.Makarena m.b.
3.Sereniya-la-Nablina m.b.
4.Riu-Negra m.b.
5.Piku-de-Neblina m.b.
6.Jau m.b.
7.Amazoniya m.b.
8.Manu m.b.
9.Pakaas-Navus m.b. | 10.Shingu m.b.
11.Araguaya m.b.
12.Iguasu m.b.
13.Lanin m.b.
14.Naguel-Uapi m.b.
15.Laguna-San-Rafael m.b.
16.Los-Glasyares m.b.
17.Alberto-Agostini m.b. |
|--|--|

Tabiiy geografik o`lkalari

- 1.Tog`li G`arb
- 2.Tekislikli Sharq

QONXO`R BALIQLAR

Janubiy Amerikaning shimolidagi qalin va bahaybat tropik o'rmonlardan oqib o'tuvchi Amazonka daryosi sersuvligi bilangina emas, balki xilma-xil hayvonot dunyosi bilan ham barchaga mashhurdir. Sayyoramizda ma'lum bo'lgan chuchuk suvlarda yashovchi baliqlarning uchdan biri Amazonka va uning irmoqlarida borligi aniqlangan. Amazonka baliqlari mahalliy aholining asosiy oziq-ovqati hisoblangan. Shuningdek, ayrim baliqlar ularga dahshat va falokat olib keladi. Amazonka va uning irmoqlarida bor kishi hech qachon cho'milmaydi. Buning sababi, qonxo'rlikda va yirtqichlikda akuladan ham o'tadigan **piranya**(pirayi) balig'idir.

Piranya baliqlarining tashqi tuzilishi kambalaga o'xshash bo'lib, uzunligi 30-50sm, tishlari o'tkir. Bu baliqlar katta hayvonlar yoki odamlarga hujum qilganda, bir necha daqiqa ichida ularning suyagi qoladi, xolos. Bu baliqlar ovchilar o'qidan yaralangan timsohlarni ham paqqos tushirishadi. Daryodan suv ichayotgan hayvonning oyog'ini g'ajib uni suvga yiqitishga majbur qilishadi va hayvon ularning o'ljasiga aylanadi.

JANUBIY AMERIKA ANAKONDASI

Janubiy Amerika anakondasining uzunligi 12m ga boradi, og'irligi 250 kmgacha bo'lishi mumkin. U ovini juda sabr bilan kutadi, hatto 2 hafta o'z o'ljasini poylashi mumkin. O'ljani yutib yuborgach, 1 yil davomida ovqatlanmasligi mumkin. Qorni to'q paytda u xavfsiz bo'ladi, qorni och va po'st tashlash vaqtida ular hatto odamni ham yutib yuborishi mumkin. Amerika ovchilari o'rmonda 2 kishi bo'lib ov qiladi. 1-ovchi yo'l boshlovchi ilonga xo'rak bo'ladi. Ilon sherigiga tashlanib o'rab olgach, 2-ovchi ilonning bosh qismini ushlab, sherigini ayirib oladi. Anakonda tabiiy holda juda chaqqon va xavfli bo'ladi. Kiyik, kabibara uning eng sevimli taomidir.

FOJEAVIY SHAHAR

Janubiy Amerikadagi Boliviya davlatida dunyodagi barcha katta-yu kichik shaharchalar ichida eng baland tog' tepaligida joylashgan bo'lib, u Potosi deb ataladi. U qariyb dengiz sathidan 4100m balandda joylashgan. Bu shahar Boliviyaning 2-poytaxti Sukredan 164km narida joylashgan. U balandligidan tashqari ajabtovur va fojeaviy shahardir.

Bu shahar 1504-yilda shu yerlik hindu Dego Ulpoy topilgan kumush koni ochilishi munosabati bilan bunyodga kelgan. Shahar joylashgan toqqa "badavlat tog'" ya'ni Serro - riko deb nom qo'yishgan, kon 1545-yil 10-aprelda ochilgan. Kumush vasvasasida bu joyga odamlar oqib kela boshlagan va XVII asrda "Dunyodagi eng boy shahar" nomini olgan. Shahar boylari qimmatbaho toshlar yordamida juda ajoyib uylar, ibodatxonalar (80ta ibodatxona) qurishgan, monastr, qasrlar, arxitektura yodgorliklari bor. Kon tugagach ispanlar shaharni tark etishdi. Shaharni 1988-yilda YUNESKO dunyo bo'yicha inson qoldirgan me'rros ro'yxatiga kiritdi.

- ❖ Janubiy Amerikaning janubiy chekkasidagi Olovli Yer arxepelagining janubiy va g'arbiy qismi tog'lik bo'lib, eng baland joyi 2469 m.


- ❖ Janubiy Amerikadagi hindu tillarining eng yirik oilalaridan biri Tupi – guarani tillari bo`lib, so`zlashuvchilarning umumiy soni 4 mln ga yaqin.
- ❖ Materikda hozirgi zamondagi eng yirik kemeruvchi suv cho`chqasi kapibara yashaydi.
- ❖ Dunyodagi eng katta stadion(Marakano) Janubiy Amerika materigida qad ko`targan

Janubiy Amerika davlatlari


(ma'lumot 2013 yil 1yanvarga qadar)

t/r	Davlat nomi	Poytaxti	Pul birligi	Aholi mln. kishi	Umumiy maydoni (ming km ²)
1.	Argentina	Buenos-Ayres	austral	40,2	2777,8
2.	Boliviya	La-Pas	boliviano	9,8	1098,6
3.	Braziliya	Braziliya	kruzeyro	193,0	8511,9
4.	Venesuela	Karakas	bolivar	28,8	912,0
5.	Gayana	Jordjtaun	dollar	0,8	214,9
6.	Gviana	Kaysina	Arrani-frank	0,7	0,215
7.	Kolumbiya	Bogota	peso	45,5	1138,9
8.	Paragvay	Asunson	gvarani	6,4	406,7
9.	Peru	Lima	inti	29,2	1285,2
10.	Surinam	Paramaribo	gulden	0,43	163,0
11.	Urugvay	Montevideo	peso	3,4	176,2
12.	Chili	Santyago	peso	17,0	756,9
13.	Ekvador	Kito	sukre	14,2	285,6

Janubiy Amerikada Yer yuzasi sathidagi o`rtacha harorati. Yanvar




Janubiy Amerikada Yer yuzasi sathida havoning o`rtacha temperaturasi. Iyul
2-rasm




O`simliklar xaritasi

3-rasm



Ba`zi o`simliklarning Janubiy Amerikaga tarqalishi

4-rasm



1. T.V. Vlasova Materiklar tabiiy geografiyasi T. «O`qituvchi» 1983 yil
2. O. Mo`minov Feofrafiya ta`limi metodikasi T. «O`qituvchi» 1986 yil
3. Maksakovskiy Geograficheskaya kultura M.2001g.
4. Jahon mamlakatlari. Qisqa ma`lumotnoma / ma'sul muharrir A.Hazratqulov. – T.: “Sharq”, 2007.
5. Salimov X. Jahon mamlakatlari iqtisodiy geografiyasini o`rganish metodikasi. — T.: 1993.
6. Noveyshiy enstiklopedicheskiy spravochnik. Страны мира / Авт. – sost. D.O. Xvostova. – M.: OLMA Media Grupp, 2006.
7. Strani mira: Enstiklopedicheskiy spravochnik. Smolensk: Rusich, 2000.
8. Sostialno-ekonomicheskaya geografiya zarubejnogo mira Pod red. V. V. Volskogo. -M.: KRON-PRESS, 1998.
9. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi jild 1 – 3, “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat milliy nashriyoti, Toshkent 2005 – yil
10. A.I. Piridinov Dunyo iqtisodiyoti. M: ИИФРА-М, 2000 yil

Soʻz boshi.....	3
-----------------	---

IBOB. Janubiy Amerika materigining geografik oʻrni, tarixi va tabiati

1. 1. Janubiy Amerika materigining geografik oʻrni, maydoni va chegaralari.....	4
1.2. Kashf etilishi va tadqiq qilinish tarixi.....	5
1.3. Materik tabiati shakllanishi va relyefi.....	5
1.4. Ichki suvlari.....	12
I. 5. Janubiy Amerikaning botanik-geografik rayonlashtirilishi.....	16

II BOB. Janubiy Amerika materigining aholisi va davlatlari.

2.1. Aholisi.....	24
Argentina.....	29
Boliviya.....	30
Braziliya.....	31
Venesuela.....	32
Kolumbiya.....	34
Paragvay.....	35
Peru.....	36
Surinam.....	38
Urugvay.....	39
Foklend (Malvin) orollari.....	40
Fransiya Gviana.....	41
Chili.....	42
Ekvador.....	43

Qoʻshimcha maʼlumotlar 45

Bayroq va gerblari	59
--------------------------	----



ЖАНУБИЙ АМЕРИКА



АРГЕНТИНА



БОЛИВИЯ



БРАЗИЛИЯ



ВЕНЕСУЭЛА



ГАЙАНА



КОЛУМБИЯ



ПАРАГВАЙ



ПЕРУ



СУРИНАМ



УРУГВАЙ



ФОЛКЛЕНД
ОРОЛЛАРИ



ФРАНЦУЗ
ГВИАНАСИ



ЧИЛИ



ЭКВАДОР

52



ЖАНУБИЙ АМЕРИКА



АРГЕНТИНА



БОЛИВИЯ



БРАЗИЛИЯ



ВЕНЕСУЭЛА



ГАЙАНА



КОЛУМБИЯ



ПАРАГВАЙ



ПЕРУ



СУРИНАМ



УРУГВАЙ



**ФОЛКЛЕНД
ОРОЛЛАРИ**



ЧИЛИ



ЭКВАДОР



